



# YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 66 (1665), 2026-yil 5-aprel, yakshanba



## O'ZBEKISTON GEOLOGIYA SOHASI XODIMLARIGA

Qadri do'stlar!

Avvalo, siz, azizlarni — ko'p millatli geologlar, muhandis va mutaxassislar, ishchi va xizmatchilar jamoasini qutlug' kasb bayramingiz bilan chin qalbindan samimiy muborakkob etib, barchangizga o'zimizning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarning murakkab tabiiy sharoitlarda fidokorona mehnat qilib, yangi-yangi konlar, mineral xomashyo manbalarini topish, ularni mamlakatimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida ishlatish borasidagi ulkan xizmatlaringizni yana bir bor minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Ana shunday sa'y-harakatlaringiz tufayli yurtimizda umumiy bahosi taxminan 3 trillion dollarga teng 2 ming 500 dan ortiq kon va 3 mingdan ziyod istiqbolli maydonlar aniqlangan. O'zbekiston ulkan qazilma boyliklar xomashyo bazasiga ega ekanidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda ana shu zaxiralarni o'zlashtirish va shu asosda iqtisodiyotimiz rivojiga qudratli turtki berish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Jumladan, sohaga xalqaro standartlar joriy etilib, investitsiyaviy jozibadorlik oshirilmogda, oltin, kumush, mis, uran, uglevodorod konlari va maydonlari xorijiy sarmoyadorlar uchun ham taqdim etilmogda, soliq stavkalari pasaytirilmogda. Shu bois, dunyodagi eng nufuzli kompaniyalar mamlakatimizga faol investitsiya kiritmogda. Hozirgi vaqtda ular bilan hamkorlikda umumiy qiymati 30 milliard 700 million dollar bo'lgan 90 ta loyiha amalga oshirilayotgani diqqatga sazovordir.

Bugungi kunga qadar 1 ming 458 ta foydali qazilma obyekti onlayn auktsion orqali sotildi. Buning hisobidan davlat byudjetiga 1 trillion so'mdan ziyod mablag' tushdi, 100 mingga yaqin yuqori daromadli yangi ish o'rinlari yaratildi.

So'nggi o'n yilda davlat byudjetidan 8 trillion 200 milliard so'm mablag' yo'naltirilgan 2 mingga yaqin texnika va texnologiyalarni joriy etish, geologiya-qidiruv uskunalarini 70 foiz yangilash imkonini berdi.

Mamlakatimizda vertolyot va dronlar yordamida aerogeofizika ishlari yo'lga qo'yilgani, zamonaviy 3D o'lchamli seysmik kompleks ishga tushirilib, yer qa'rini 9 kilometrgacha chuqurlikda geofizik o'rganish imkoniyati yaratilgani soha rivojida yangi davr boshlanganidan dalolat beradi.

Sohada raqobat va shaffoflik muhiti shakllanmogda. Uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qolgan milliy geologiya maktabi va ta'lim tizimi qayta tiklandi, zamonaviy talablarga mos bo'lgan Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi. Ilg'or xorijiy maktablarning ilmiy salohiyatidan foydalanish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash maqsadida Kompetensiyalar markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ana shunday keng ko'lami ishlarimiz tufayli 2016-2025-yillarda 1 ming 900 dan ziyod yangi konlar ochildi. Agar 2016-yilda tasdiqlangan uran zaxiralarmiz 97 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, o'tgan davrda yana 16 ta yangi kon aniqlanib, zaxira 140 ming tonnaga yetkazildi.

Yaqinda Olmaliqda yiliga 60 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega

bo'lgan yangi mis boyitish fabrikasini ishga tushirdik. Hech shubhasiz, bunda ham siz, zahmatkash geologlarning alohida xizmatlaringiz borligini, ana shu megaloyiha natijasida 6 mingdan ortiq yuqori daromadli ish o'rni yaratilgani, korxonahisobiga yiliga 5 milliard dollar mablag' kelib tushishini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Hurmatli soha xodimlari!

Biz "O'zbekiston — 2030" strategiyasida geologiya sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha ham kelgusi vazifalarni aniq belgilab oldik. Yurtimizning mineral xomashyoga boy, istiqbolli hududlarini geologik jihatdan o'rganishni kengaytirish, oltin ishlab chiqarishni — 1,5 barobar, kumushni — 3 karra, misni — 3,5-marta, uran, temir va ko'mirmi — 3 hissa oshirishni maqsad qilganmiz.

Siz, jonkuyar va matonatli geologlarning katta bilim va tajribangiz, mustahkam iroda va mehnatsevarlik fazilatlaringiz hisobidan bu yuksak marralarga albatta erishamiz deb ishonaman.

Soha xodimlarining mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning mashaqqatli faoliyatini munosib rag'batlantirish masalalari bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Sizlarni bugungi qutlug' ayyom bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli ishlaringizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
F A R M O N I

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI GEOLOGIYA SOHASI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimiz geologiya sohasidagi ko'p yillik samarali mehnati, qazilma boyliklar geologiyasi, tadqiqot va qidiruv tarmog'ini rivojlantirish, strategik ahamiyatga ega bo'lgan mineral resurslarni aniqlash, yangi konlar va xomashyo zaxiralarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'zlashtirish borasidagi katta xizmatlari, yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qo'shgan ulkan hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

**"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan geolog" faxriy unvoni bilan**

**Muminov Tolibjon Xoliyorovich** — "Navoiyuran" davlat korxonasining "Zirabuloq" geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi

**Ergashev Elmurod Xasanovich** — "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining o'rinbosari — bosh geologi

**"Mehnat shuhrati" ordeni bilan**

**Nuraliyev Raxmonali Azimovich** — "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Toshkent markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi burg'ilash uchastkasi burg'ilovchisi

**Yallakabilov Gulom** — "O'zbek gidrogeologiya" davlat muassasasining Markaziy O'zbekiston dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi yetakchi gidrogeologi

**"Do'stlik" ordeni bilan**

**Bogdanov Aleksandr Nikolayevich** — Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv institutining neft va gaz konlari geologiyasi hamda istiqbolli obyektlarni baholash laboratoriyasi boshlig'i

**Shukurov Nosir Egamovich** — H.Abdullayev nomidagi Geologiya

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Toshkent shahri,  
2026-yil 4-aprel

va geofizika institutining geokimyo laboratoriyasi boshlig'i

**"Shuhrat" medali bilan**

**Aripov Shaxobiddin Paxritdinovich** — O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi eksperti

**Jo'rayev Sherali Izatilloevich** — "Navoiyuran" davlat korxonasining geologiya va qidiruv bo'yicha direktori

**Zairov Ilxom Matazimovich** — "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatining "Avtomobil va texnologik transport" filiali og'ir yuk mashinasi haydovchisi

**Sayitov Hamza Qahharovich** — "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining Samarqand markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi buldozer mashinisti

SH. MIRZIYOYEV

## YANGI O'ZBEKISTON BARKAMOL YOSHLAR ISHTIROKIDA BUNYOD ETILAYOTIR

Mamlakatimizda yoshlarga, xususan ularning o'qib-o'rganishi uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Buning natijasida so'nggi vaqtlarda ilmfanda xalqaro darajadagi yutuqlarni qo'lga kiritayotgan yigit-qizlar safi kengayib bormogda. Jumladan, surxondaryolik yoshlar bu borada ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmogda.

Davlatimiz rahbarining shu yil fevral oyida Surxondaryo viloyatiga tashrifi yoshlarimiz uchun quvonarli xabarlariga boy bo'ldi. Tashrif chog'ida Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston" massivdagi 66-maktabda yaratilgan shart-sharoitlar, xususan, nogironligi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan imkoniyatlar bilan tanishdi. Sun'iy intellekt, raqamlashtirish bilan bog'liq yo'nalishlarning yoshlar hayoti va kelajagi uchun naqadar muhim ekaniga e'tibor qarattildi. Sun'iy intellektga o'qitish dasturlari maktab ta'limiga joriy etilishi



### Taraqqiyot strategiyasi amalda



orqali mehnat bozoriga kelajak kasblari uchun puxta hozirlik bilan ulg'ayishi zarur ekaniga urg'u berildi. Ha, bugungi yoshlar sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'la foydalanib, ularni boshqarish darajasiga

yetishi zarur. Shu orqali oldimizdagi katta marra — Uchinchi Renessans paydovorini mustahkamlaymiz. Buning uchun yana bir qulay imkoniyat va o'ziga xos yondashuv esa ushbu massivdagi xorijiy tillar va

axborot texnologiyalari o'quv markazidir. Davlatimiz rahbari ushbu o'quv markazi faoliyatini yuqori baholadi.

Davomi 3-beta



### Munosabat



## EKILGAN HAR BIR NIHOLDA EZGU NIYATLAR, ORZU-UMIDLAR MUJASSAM

Prezidentimiz Toshkentda Milliy dendrologiya bog'ini barpo etish ishlariga rasman start berib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etdi.

Xalqimiz azaldan Navro'z kunlarida, oilasida farzand tug'ilganida tomorqasiga, maydon va xiyobonlarga, yo'l chetlariga yaxshi niyat bilan ko'chat qadagani, gulu rayhonlar ekaniga alohida e'tibor qarattildi. Bu gaplar meni ham ruhlantirib yubordi. Chunki har yili ko'chat ekamiz, lekin

parvarishiga kelganida har doim ham hafসা qilmaymiz. Natijada yo'qotishlar ko'p bo'ladi. Bunday ish tutumimiz otabobalarimizdan meros ko'chat ekish va parvarishlash bilan bog'liq qadriyatlariga umuman mos emasligidan afsuslandim.

Davomi 3-beta

**Kun mavzusi**

## Raqamli bank: QULAY, SHAFFOF VA ORTIQCHA OVORAGARCHILIKLARSIZ

Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti, jumladan, moliya tizimi ham jadal raqamlashib bormogda. Endi kommunal to'lovlardan tortib, turli xaridlarni ham uydan chiqmay, onlayn amalga oshirish mumkin. Zero, bu qulayliklarni moliyaviy sohadagi islohotlar hosilasi deyish mumkin.

Binobarin, bugungi natijalar O'zbekiston raqamli to'lovlarni joriy etish bosqichidan allaqachon o'tib bo'lganini yaqqol namoyon etadi. Hozir savdo va xizmat ko'rsatish sohasida naqdsiz to'lovlarning ulushi 66 foizga

yetti. Kelgusida ushbu ko'rsatkichni 75 foizga yetkazish rejalashtirilgani davlat siyosatining izchil va aniq maqsadga yo'naltirilganini tasdiqlaydi.

Eng muhim jihatlardan yana biri tizimning texnik va institutsional jihatdan to'liq tayyor ekanidir.

Davomi 4-beta



### Farovonlik xaritasi

## ISLOHOTLAR SAMARASI XONADONLARDAGI TO'KINLIKDA NAMOYON

Insoniyat tarixida oziq-ovqat xavfsizligi har doim farovonlik va taraqqiyotning bosh mezon bo'lib kelgan. Chunki jamiyat barqarorligi, aholi salomatligi va iqtisodiy o'sish, avvalo, yetarli va sifatli oziq-ovqat ta'minotiga bog'liq. Bugungi shiddatli globallashtirish, iqlim o'zgarishi davrida esa oziq-ovqat mahsulotlari oddiy iste'mol tovaridan ko'ra kengroq va chuqurroq ahamiyat kasb etmogda. U nafaqat inson hayoti uchun zarur manba, balki davlatlarning suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi hamda ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi strategik "oltin zaxira"ga aylangan.

Davomi 2-beta

# O'ZBEKISTON - RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR YURTI



Xurram TESHABOYEV, investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari

2025-yil yakunlari ushbu yo'nalishdagi ishlohtlarning amaliy natijalarini yaqqol namoyon etdi. Xususan, respublika eksporti 2025-yili oltinsiz hisobda 23,9 milliard dollarni tashkil etib, 2024-yildagiga nisbatan 122 foiz o'sdi.

Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichni 2030-yilgacha har yili o'rtacha 15 foizdan barqaror oshirib borish rejalashtirilgan. Bu esa milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish, eksport geografiasini diversifikatsiyalash va mahalliy mahsulotlar nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eksport faoliyatiga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2025-yil yakuni bo'yicha eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan imkoniyatlarni keng targ'ib qilish natijasida 3055 ta yangi tadbirkorlik subyekti eksport faoliyatiga jalb etilib, jami eksportchi korxonalar soni 7370 taga yetkazildi.

Belgilangan maqsadlarga muvofiq, 2030-yilga qadar eksportchilar sonini 15 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkich tizimli ravishda o'sib, 2025-yildagi 6500 tadan 2026-yilda 7700 taga, keyingi yillarda esa mos ravishda 9100, 10,8 ming va 12,8 mingga yetish ko'zda tutilgan. Bu, eng avvalo, kichik va o'rta biznes vakillarining tashqi bozorlarga chiqishini faollashtirishda muhim omil bo'ladi.

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini oshirish ustuvor vazifalardan. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ushbu mahsulotlar ulushi 52 foizni, ya'ni 12,3 milliard dollarni tashkil etdi.

Kelgusi yillarda mazkur yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida 2026-

yili tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 55, 2027-yilda 58, 2028-yilda 62, 2029-yilda 66 va 2030-yilga borib, 70 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Bu esa mamlakatimizda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat tarmoqlarida chuqur qayta ishlash jarayonlarini jadallashtirish va eksport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda sifat standartlari juda muhim. Shu bois, 2025-yilda 1639 ta mahalliy eksportchi korxonada jami 3248 ta ISO, Oeko-Tex, Global GAP, ORGANIC, SEDEX va HALOL kabi xalqaro standart va sertifikatlar joriy qilindi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlar yanada kuchaytirilib, 2026-yilda xalqaro standartlarni

seminarlarda qatnashish kabi yo'nalishlarda moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi.

Albatta, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmaydi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash maqsadida zarur qo'llab-quvvatlov choralarini izchil davom ettiriladi.

Eksport salohiyatini yanada kuchaytirish uchun 2026-2030-yillarga mo'ljallangan Milliy eksport strategiyasi ishlab chiqilib, strategiya doirasida amaliy chora-tadbirlar ko'riladi.

Strategiyada belgilangan 7 yo'nalish va 30 maqsadli indikator hududlar kesimida samaradorlikni baholashning muhim mezonini, ya'ni KPI sifatida belgilanadi. Shuningdek, "100 mahsulot akselerator" dasturi orqali 100 turdagi tayyor mahsulot eksportini Afrika, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo davlatlariga sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan.



joriy qilgan korxonalar sonini 3000 taga, 2027-yili 3500, 2028-yili 4000, 2029-yili 4500 va 2030-yilga borib, 5000 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, milliy brendlarni xalqaro maydonda targ'ib qilish ishlari ham izchil davom ettirilmoqda. Ayni paytda tashqi bozorlarda raqobatlasha oladigan va "O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturiga kiritilgan 27 korxonaga o'z savdo belgisi (brendi) ga ega.

2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish maqsadida Savdoni rivojlantirish jam'arasi hisobidan xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish, mutaxassislarni o'qitish, chet eldagi savdo uylari va omborlarni ijaraga olish, mahsulotlarni xorijda reklama qilish, biznes

Bundan tashqari, Rossiya, Turkiya va Slovakiya tajribasi asosida eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, sug'urtalash va kafillik taqdim etuvchi eksport-import banki faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha ham takliflar ishlab chiqildi.

Umuman olganda, bugun qo'lga kiritilayotgan natijalar va kelgusi yillar uchun belgilab olingan ayni chora-tadbirlar 2030-yilga qadar eksportda barqaror o'sish sur'atini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, korxonalarni eksport faoliyatiga keng jalb qilish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, xalqaro standartlar sonini ko'paytirish hamda milliy brendlarni tashqi bozorlarda faol targ'ib etish orqali mamlakatimiz eksport salohiyati yanada yuksaladi.

## Dolzarb mavzu

So'nggi paytlarda jamoat transporti, ko'cha-ko'yda qizlar va ayollarga bo'layotgan nojoiz muomala, bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlari borasida eshityapmiz, o'qiyapmiz. Muhimi, ularga nisbatan tezkorlik bilan tegishli jazo choralarini ko'riyapti.



## OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH

### KELAJAK AVLOD UCHUN BARQAROR JAMIYAT BARPO ETISHDIR

Aksar yurdodoshlarimiz fikricha, bunday shaxslarga berilayotgan jazo turi yengil, ularga qattiqroq jazo choralarini qo'llanishi kerak. Lekin bunday holatlarning oldini olishda nafaqat jazo choralarini kuchaytirish, balki oilaviy muhit, nuroniylar va mahalla faollari sa'y-harakatlari ham muhim ahamiyatga ega. Barchamiz birgalikda zo'rvonlikka qarshi murosasiz, oila institutini mustahkamlash va kelajak avlod uchun yanada adolati, xavfsiz muhit yaratishga o'z hissamizni qo'shishimiz shart.

Prezidentimiz joriy yil 3-mart kuni ayollar va bolalar huquqlari himoyasini yanada kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish yuzasidan takliflar hamda yangi tashabbuslar bilan tanishdi. Qayd etish kerak, mamlakatimizda erta nikoh, erta yoshdagi tug'urug' hamda ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining oldini olish masalalariga oila institutini mustahkamlash, jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Ushbu masalalar eng yuqori darajada bir necha bor muhokama qilinib, huquqni muhofaza qilish organlari hamda boshqa mutasaddi idoralar oldiga aniq vazifalar qo'yilgan. Ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida idoralararo kengash tashkil etilgan va qisqa muddatlarda amaliy takliflarni ishlab chiqish topshirilgan edi.

Taqdimotda keng jamoatchilik, soha ekspertlari takliflari va eng ilg'or xalqaro tajriba asosida muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tayyorlangan tashabbuslar ko'rib chiqildi. Muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib, davlatimiz rahbarining "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis hamda xalqimizga Murojaatnomasi, shuningdek,

qator yuksak forum va tadbirlarda ilgari surgan tashabbuslari hujjatning asosiy maqsadlariga singdirilganini ko'rish mumkin. Xususan, erta nikohlarning oldini olishga erishish, ota-onalarning o'z yoniga yetmagan farzandlari uchun mas'uliyatini yanada oshirish, oila qurishga har tomonlama tayyor bo'lgan yoshlar o'rtasida nikoh tuzishni rag'batlantirish, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini keskin qisqartirish, nikohlanuvchilarni maxsus kurslarda bepul o'qitish bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish hujjatning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Farmonda qator bahsli masalalarga ham huquqiy jihatdan nuqta qo'yilgan. Jamoatchilik tashabbusi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini asosida nikoh yoshini kamaytirishning aniq asoslarini belgilash, nikoh shartnomasi tuzilishini rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

2027-yildan boshlab har ikkala taraf kamida 21 yoshga to'lganda birinchi marotaba nikoh tuzgan yosh oilalar uchun davlat tomonidan qo'shimcha imtiyoz va qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etiladi. Ushbu oilalarga subsidiya, sud, grantlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorlardan 1,5 baravar oshirilgan holda beriladi, nikoh shartnomasini tuzgan nikohlanuvchilar nikohni qayd etish uchun belgilangan davlat bojidan ozod etiladi.

Bugun davlatimiz rahbarining "Qizlarni o'qitish", "Qizlarning bilimlari bo'lsa, jamiyat ma'rifati bo'ladi", degan so'zlari doimiy davlatga aylangan. Shu ma'noda, farmonning ushbu bandi minglab opa-singillarimizni xursand qilishi bor gap. Xususan, 2026-2027 o'quv yilidan boshlab kursdan kursga qolgan yoxud talabalar safidan chiqarilgan shaxslarga, istisno tariqasida, fanlar farqini qayta o'zlashtirish sharti bilan ta'limni davom ettirish imkonini yaratiladi. Talabalar fanlar farqini mustaqil o'zlashtirishi uchun qo'shimcha muddat beriladi.

Bu yengilliklar homilador talaba qizlarga yoki 3 yoshgacha bo'lgan farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi talabalarga oliy ta'lim olish uchun "ikkinchi imkoniyat" sanaladi.

Hujjat talabalariga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslar bilan nikoh tuzishga da'vat etganlik va uni targ'ib qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanadi. Shuningdek, 2026-yil 1-sentabrdan nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilik yoki nikoh tuzish tartibini buzishga oid huquqbuzarliklar uchun undirilgan jarima summasining 15 foizi bunday holat haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

Yana bir ahamiyatli jihat. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish hamda FHDDYO organlari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari hamda diniy idora vakillariga erta nikoh va 16 yoshgacha bo'lgan homiladorlik bilan bog'liq holatlar to'g'risida ichki ishlar organlari va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga xabar berish majburiyati yuklatiladi. Ayni maqsadda joriy yil yakuniga qadar Ichki ishlar vazirligining elektron tizimida bunday holatlar to'g'risida xabar berish imkoniyati beruvchi "O'smir-signal" moduli ishlab chiqiladi.

2026-yil 1-noyabrdan boshlab Jinoyat kodeksining qator moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha faqatgina qadar tekshiruv va dastlabki tergov taqod prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jinoyat kodeksiga voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsoy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun muqaddam sudlangan shaxslarni jinoyatni qayta sodir etganda umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilashga oid o'zgartirishlar kiritiladi.

Farmon bilan ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Davlat va jamoat tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xususiy va birgalikdagi vazifalari belgilab berildi.

Bir so'z bilan aytganda, farmon yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash va kelajak avlod uchun xavfsiz hamda barqaror jamiyat barpo etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri. Eng asosiysi, xalqimizning ayollarga hurmat-ehtroni, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qat'iy intilishi ifodasidir.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Boshlanishi 1-beta

Ayniqsa, global bozorlardagi beqarorlik, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Xalqaro statistika platformalari ma'lumotiga ko'ra, bugun 53 davlatdagi 295 milliondan ortiq kishi ochlikdan va oziq-ovqat tanqisligidan aziyat chekmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilda jahon oziq-ovqat narxlar indeksi 4,3 foiz oshgani qayd etildi. Ayniqsa, go'sht va sut mahsulotlari narxida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish xarajati oshishi bilan birga dunyo miqyosida talabning keskin ko'payishi bilan ham bog'liq.

Jahon banki ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisining chorvachilik mahsulotlariga talabi har o'n yilda o'rtacha 15-20 foiz oshib bormoqda. Aholi ko'payishi, daromad o'sishi va ovqatlanish madaniyati o'zgarishi natijasida oqsilga boy mahsulotlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu esa chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik tarmoqlarini jadal rivojlantirishni taqozo etyapti. Shu nuqtayi nazardan, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida ham bundan bir necha yil oldin bozorlarimizda go'sht, sut, baliq, tuxum kabi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, sitrus mevalar tanqisligi odatiy hol edi. Iste'mol bozoridagi bunday taqchilik aholi ehtiyojini to'liq qondirishga to'sqinlik qiladi.

Biroq so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasidagi tizimli ishlohtlar, ishlab chiqarish hajmi oshirilishi, klaster va kooperatsiya tizimi joriy etilishi natijasida vaziyat tubdan o'zgaradi. Bugun mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ichki ehtiyojni qondirish barobarida eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Zamonaviy gipermarketlar rastalaridan tortib, eng chekka qishloq bozorlarigacha turli go'sht va sut mahsulotlari, baliq, meva-sabzavotlar bilan to'lib-toshganini ko'rish mumkin. Ilgari faqat bayramlarda topiladigan mahsulotlar endi kundalik iste'molimizning ajralmas qismiga aylandi. Biroq bu faqat yuzal to'kinlik emas, balki mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi izchil ishlohtlarning amaliy

# ISLOHOTLAR SAMARASI XONADONLARDAGI TO'KINLIKDA NAMOYON



## Farovonlik xaritasi



natijasidir. Bugun biz oziq-ovqat ta'minotida avvalgidек oddiy qorin g'ami bilan yashash emas, balki sifatlari va xavfsiz oziq-ovqat iste'mol qilish bosqichiga o'tdik. Aynan mana shu o'tish davri va erishilgan natijalar ortida davlatimizning strategik siyosati turibdi.

Agrar soha tarmoqlarini rivojlantirish orqali asosiy oziq-ovqat tovarlari — go'sht, tuxum, sut, asal, baliq mahsulotlari yetishtirish hajmi oshiriladi. Narxlar barqarorligi ta'minlanadi. Bu yo'nalishda mahalliy va tashqi bozorni arzon hamda sifatlari qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda Samarqand mamlakatimizda yetakchi o'rinlarda qayd etiladi. Viloyatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borishga qaratilgan tizimli ishlar bajarilmoqda. Xususan, oziq-ovqat ta'minoti barqarorligini ta'minlash, aholi ehtiyojini to'liq qondirish va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida tegishli tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun viloyatda 1729 ta chorvachilik fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda. Shundan 752 tasi qoramolchilikka ixtisoslashgan. Ularda 137 ming bosh qoramol parvarishlanmoqda. Bundan tashqari, 223 ta xo'jalikda 434,3 ming bosh qo'y, yilqichilik 8500 bosh yilqi boqilmoqda. Qolaversa, 211 ta parrandachilik xo'jaligida 6,3 million bosh parranda, 19 ta quyonchilik xo'jaligida 9000 bosh quyon parvarishlanmoqda.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, viloyatdagi barcha toifali xo'jaliklarda chorvachilik sobasi barqaror va izchil o'sish sur'atini namoyon etdi. Jumladan, go'sht yetishtirish hajmi 332,8 ming tonnani tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 102,2 foiz oshgan. Sut tayyorlash hajmi 1 million 468,3 ming

tonnaga yetkazilib, 100,8 foiz o'sish ta'minlangan. Shuningdek, parrandachilik tarmog'ida ham salmoqli yutuqlarga erishilgan — 1 milliard 399,6 million dona tuxum yetishtirilib, o'sish sur'ati oldingi yilga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik hozir shunchaki qishloq xo'jaligi tarmog'i emas, balki zamonaviy boshqariladigan joriy etilgan, yuqori daromad keltiruvchi, eksport salohiyati ortib, yuzlab yangi ish o'rinlari ochilayotgan strategik industriyaga aylandi. Sohada investitsiyaviy jolibadorlik ortmoqda, ishlab chiqarish samaradorligi esa yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Viloyatda ham tegishli dasturlar doirasida chorvachilikni jadal rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 400 milliard 897 million so'mlik 85 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu esa aholi

bandligini ta'minlash va daromad manbalarini ko'paytirishda muhim omil bo'lmoqda.

Viloyat bo'yicha qoramolchilik sohasida umumiy qiymati 93 milliard 880 million so'mlik 36 ta loyihaga amalga oshirildi. Buning hisobiga 225 ta yangi ish o'ri ochildi, — deydi viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Odilxon Baqoyev. — Qo'y va echkichilik yo'nalishida esa umumiy qiymati 24 milliard 223 million so'mlik 7 ta loyihaga ishga tushirilib, 30 ta yangi ish o'ri tashkil etildi. Ushbu loyihalar mahsulotlikni oshirish barobarida naschilikni rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy fermer xo'jaliklarini tashkil etish hamda mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Bir paytlar qish chillasida bozorlardagi narx-navo, ayniqsa, vitamanga boy mahsulotlar xarid qilish oilaviy byudjet uchun jiddiy sinovga aylanardi, — deydi pastdarg'omlik Bobonazar Qozoqov. — Bozordan bir kilogram limon yoki shuncha apelsin sotib

ishlab chiqarish ko'laminin aholi ehtiyoji va iste'moldan yuqori bo'lishi narxlar barqarorligini ta'minlaydi. Bu borada viloyatda muayyan ko'rsatkichlar mavjud. Masalan, bir yillik go'shtga talab 187 ming tonnani tashkil etsa, amalda 225 ming tonna go'sht yetishtirilmoqda. Bu esa ehtiyojning 124 foiz qoplanayotganini anglatadi. Oritqacha mahsulot boshqa viloyatlarga yetkazib berilib, ichki bozor barqarorligi bilan birga hududlararo hamkorlik ham ta'minlanmoqda. Tuxum yetishtirishda ham ijobiy ko'rsatkichlarga erishilgan. Viloyat aholisining yillik ehtiyoji 906 million donani tashkil etadi. Amalda 1,5 milliard dona tuxum olinmoqda. Natijada iste'mol talabi 162 foiz bajarilib, bu mahsulot bo'yicha ham ortiqcha zaxira shakllanmoqda. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda ishlab chiqarish hajmi ehtiyojdan kamligicha qolmoqda. Jumladan, aholining baliq mahsulotlariga talabi qariyb 31 ming tonnani tashkil etadi. Biroq hozir 20 ming tonna, ya'ni 65 foiz miqdordagi baliq yetishtirilmoqda. Bu holat asosan suv resurslari bilan bog'liq cheklolvar hamda boshqa obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Xuddi shunday holat asalarichilik sohasida ham kuzatiladi. Viloyat bo'yicha asalgacha yillik ehtiyoj 6500 tonnani tashkil etadi. Ayni paytda 3000 tonna atrofida mahsulot olinmoqda. Demak, ushbu yo'nalishlarda qo'shimcha imkoniyatlardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bir paytlar qish chillasida bozorlardagi narx-navo, ayniqsa, vitamanga boy mahsulotlar xarid qilish oilaviy byudjet uchun jiddiy sinovga aylanardi, — deydi pastdarg'omlik Bobonazar Qozoqov. — Bozordan bir kilogram limon yoki shuncha apelsin sotib



olish nafaqat muammo, balki hamyon uchun anchagina og'irlik qiladigan hasham edi. O'sha paytlar bu kabi mevalar donalab sotib olingani, tovuq go'shti va baliq esa faqat bayram dasturxonlarini bezaydigan noyob mahsulot bo'lgani sir emas. Bugun esa sharoit butunlay o'zgargan: nafaqat shaharlarda, balki olis qishloq do'konlarida ham sarxil mevalar, parhezboq tovuq go'shti, baliq va tuxum kabi mahsulotlar peshtaxtalarni to'ldirib turibdi. Bu bozorlarimizda nafaqat mo'l-ko'lichlik, balki tanlov imkoniyati kengayganidan, aholi dasturxonini yanada boyiganidan dalolat beradi.

Albatta, bu yutuqlar tasodif emas. Ular zamirida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirishga qaratilgan amaliy strategiya va tizimli ishlohtlar samarasi mujassam. Muhimi, ushbu natijalar raqamlarda emas, balki har bir xonadon dasturxonidagi baraka va xalqimizning ertangi kunga ishonchida namoyon bo'lmoqda.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist



Taraqqiyot strategiyasi amalda

YANGI O'ZBEKISTON BARKAMOL YOSHLAR ISHTIROKIDA BUNYOD ETILAYOTIR



Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ta'kidlash kerak, ushbu o'quv markazi 6,5 milliard so'm hisobiga barpo etilgan. Unda yiliga 2 mingdan ortiq yoshga ta'lim olish va loyihalar ustida ishlash imkoniga ega. Bu yerda 200 nafarga yaqin o'quvchi kompyuter savodxonligi va "front-end" yo'nalishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat olgan. 150 nafarga yaqin o'quvchi IELTS imtihonlarida B2 va undan yuqori natijalarni qayd etgan. Ana shunday yutuqlar sabab ushbu tajriba ommalashtiriladigan bo'ldi.

Surxondaryolik yoshlarning bunday yutuqlari zamirida albatta, yangi O'zbekistondagi islohotlar turibdi. Ushbu yangilanishlar esa mamlakatimizdagi puxta o'ylangan reja asosida olib borilmoqda. Buni Surxondaryoda ta'lim sohasida erishilayotgan yutuqlar misolida ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz yetakchisi bundan besh yil avval raqamli iqtisodiyotga o'tish vazifasini qat'iy maqsad sifatida belgilab bergan edi. Xususan, Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi", deya ta'kidlagan edi.

O'tgan davrda Surxondaryo viloyatida ham bu borada salmoqli ishlar bajarildi. Jumladan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida 2025-yilda 2500 ming kilometr optik tolali aloqa tarmog'i tortilib, umumiy uzunligi 23,4 ming kilometrga yetkazildi. Shuningdek, viloyatda jami 1014 ta tayanch stansiya o'rnatildi va modernizatsiya qilindi. Mobil internet qamrovi 2017-yilda 50 foiz atrofida edi. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 96 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakunida 99,3 foizga yetkazildi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida quvonarli natijalarga erishildi. Xususan, 2025-yilda viloyat bo'yicha jami 989 mingdan ortiq ariza qabul qilindi. Shundan 323,6 mingtasi Davlat xizmatlari markazlari orqali, 666,2 mingtasi esa Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etilgan. Shuning o'zaroq raqamlashtirish xalqimiz hayotida qanchalik muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Surxondaryoda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanuvchilar soni esa 811,2 ming nafarga yetdi. Birgina 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish sohasida ko'rsatilgan xizmatlar sezilarli darajada oshdi. Jumladan, kompyuter dasturlash sohasidagi xizmatlar qiymati 247 milliard so'mga teng bo'ldi, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligi Surxondaryo viloyati hududiy shu'ba bosh mutaxassisi Umar Xushvaqov.

Prezidentimiz raisligida 2025-yil 21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda belgilangan vazifalar jirosi sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishni yangi bosqichga olib chiqadi. 2030-yilda sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish reja qilingan. Biroq xorijiy ekspertlar O'zbekiston salohiyatini 10 milliard dollarga baholagan. Hozir dunyoda sun'iy intellekt iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va xavfsizlik kabi barcha muhim sohalarning tayanchidir. Shu boisi, mamlakatimizda davlat boshqaruvi organlari xodimlari va xizmatchilarini sun'iy intellekt yo'nalishida o'qitish tizimlari tashkil etilyapti.

Prezidentimizning 2025-yil 17-yanvardagi qaroriga asosan amalga oshirilayotgan "Raqamlashtirish orqali farovonlik sari dasturi" doirasida kam ta'minlangan oilalarning 2376 farzandi masofaviy tahsil oldi. Ular to'rt yo'nalish bo'yicha onlayn platformalarida bepul o'qitilib, tegishli sertifikat berildi.



— 2025-yilda 218 yosh va davlat xizmatlari axborot texnologiyalari sohasidagi professional o'quv kurslarida tahsil olib, xalqaro sertifikatga ega bo'ldi. Shuningdek, "Bir million dasturchi" loyihasi

yo'nalish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilgan. Ularda yoshlar raqamli texnologiyalar sohasi bo'yicha kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlab, malakali mutaxassis bo'lib chiqadi. Parkda uchta masofaviy xizmat ko'rsatish markazi ham tashkil etilgan. Ularda 100 dan ziyod yoshlar zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritib, yuqori daromadli va barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlangan.

Markazimiz call center yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritadi. Mamlakatimiz va Rossiyaga autorsing xizmatlarini ko'rsatadi. 2025-yilda surxondaryolik 700 ga yaqin kishini ish bilan ta'minladik. Hozir ham yangi xodimlar uchun ochiq ish o'rinlari mavjud, — deydi "IT call" MCHJ viloyat filiali direktori Komron Zayniddinov. — Hozir turli loyihalar bo'yicha xodimlarni ishga qabul qilyapmiz. Markazimiz chet tillarni biladigan, kompyuterda ishlash bo'yicha bazaviy bilimiga ega mutaxassislarni ham tayyorlaydi.

Sohada ish o'rinlarini ochishga jiddiy e'tibor berilyapti. Xususan, "Unicon-Soft" MCHJ Surxondaryo filiali joriy yilda qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etishni maqsad qilgan. E'tiborlisi, ushbu MCHJ raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va elektron hukumat yo'nalishi bo'yicha dasturiy mahsulotlarni joriy etish, tizimlardan foydalanishni o'rgatish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda yoshlar orasida dasturchilik, veb-dizaynerlik, kompyuter texnologiyasi va AT sohasiga qiziquvchilar ko'payib boryapti. Bu bir tomondan, ilg'or axborot texnologiyalarining hayotimizga jadal kirib kelgani bilan bog'liq bo'lsa, boshqa jihatdan, mamlakatimizda



doirasida "Coursera" ta'lim platformasidagi bepul o'quv kurslarida 32 ming 471 yosh o'qitildi, — deydi AT parkining Surxondaryo viloyati filiali boshlig'i Ja'far Hayitov. — Shuningdek, "Bir mahallada yetti dasturchi" loyihasi doirasida 669 yosh nemis va boshqa xorijiy tillardan B2 darajadagi, 3269 nafar yigit-qiz esa ingliz tili bo'yicha C1 va B2 darajadagi xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Termiz shahridagi AT parkida zamonaviy mehnat bozori talabidan kelib chiqib 7 ustuvor

barcha sohada raqamlashtirish jarayoni keskin faollashishiga borib taqaladi. O'z-o'zidan shunday sohalar bo'yicha o'qitish tizimi ham rivojlanib bormoqda. Hozir innovator, dasturchi, ixtirochi yigit-qizlar safi ham kengaymoqda. Ular yaratgan zamonaviy qurilma, loyihalar ishlab chiqarishga joriy qilinib, xalqaro bozordan joy olaypti. Ha, sohadagi islohotlar ushbu yo'nalishdagi faoliyatni mulqoq yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamli xizmatlar sifatini oshirib, innovatsion yechimlarni joriy etish va AT xizmatlari eksporti hajmini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limdan — oliy ta'limgacha

Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, hududda 972 ta umumta'lim maktabi, 17 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabi va 16 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internat hamda 487 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Yangi davlatga tegishli va xususiy bog'chalar ish boshlandi. Mavjudlari zamonaviy standartlar asosida jihozlandi. Sohoning barcha hududida birdek rivoj topishi yaxshi natija beryapti. Xususan, vohaning markazdan olis qishloqlarida ham bolalarni maktabga tayyorlash masalasi kun tartibidan tushmadi. Bu ta'limning ilk bosqichidanoq teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilayotir.

2025-yil yakuniga ko'ra, viloyatda maktabgacha ta'limga qamrov 70,9 foizga yetdi. Buning uchun mahalliy byudjet mablag'i hisobidan 4 ta, investitsiya dasturi doirasida 8 ta yangi bog'cha qurildi hamda 19 ta MTM rekonstruksiya qilindi. Natijada 1845 ta o'rin ochildi. Bundan tashqari, 145 ta oilaviy bog'cha, davlat-xususiy sheriklik asosidagi 7 ta MTT, 171 ta majburiy bir yillik maktabga tayyorlov guruhlari tashkil etilishi tufayli 13 ming 500 ta o'rin ochildi. Shuningdek, "Aqlvov" loyihasi doirasida 11 ta avtobus bazasida 69 ta guruh shakllantirildi. Ularga 1104 bola qamrab olingan, — deydi Surxondaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jasur Mirzaqulov.

Qator maktablar kapital ta'mirdan chiqarildi. Yangi binolar foydalanishga topshirildi. Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, elektron jurnal va kundaliklar amaliyotga keng tatbiq etildi. Hozir viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida 565 ming 563 o'quvchi bilim olyapti.

Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida malaka oshirish, qayta tayyorlash dasturlari va ilg'or tajribalarni ommalashtirish ishlariga ham jiddiy e'tibor berildi. Pedagoglar mehnatini qadrlash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida ham muayyan ishlar qilindi. Buni o'qitish sifatiga ta'sir ko'rsatayotgan muhim omil sifatida baholash mumkin. Yillar davomida kasb-hunar ta'limi tizimi mehnat bozori talabiga moslashtirildi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, muayyan kasbga yo'naltirish maqsadida amaliyotga asoslangan ta'lim kuchaytirildi.

2025-2026 o'quv yilidan boshlab, viloyatimizda 4 ta ishchi va 4 ta axborot texnologiyalari yo'nalishida kasb-hunar o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda kasbiy ta'lim ustasi vazifasi ta'asis etildi. Muhimi, kasb-hunar o'rgatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan 30 ta maktab zarur jihozlalar bilan ta'minlandi, — deydi Surxondaryo viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i Baxtiyor Qurbonov.

Oliy ta'lim sohasida yangi marralar sari qadam tashlandi. Xususan, viloyatda yangi OTMLar va ta'lim yo'nalishlari ochildi, xalqaro hamkorlik ko'lami kengaydi. Ilmiy faoliyat, startap loyihalar va innovatsion tashabbuslar qo'llab-quvvatlandi. Bunday yangilanishlar yoshlarning raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qilyapti. So'nggi yilda maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qabul qilinishi ko'rsatkichi 3,1 foiz oshib, 38,7 foizga yetdi.

Hamkorlik xorijiy tillarni o'qitishda samara bermoqda

Til shunchaki muloqot vositasi emas. Ilmiy yangiliklarni tezkor va puxta o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois, yangi O'zbekistonda ta'limning eng qiyi bo'g'inidan boshlab barcha bosqichda til o'rgatishga jiddiy e'tibor berilyapti. Qolaversa, Prezidentimizning 2024-yil 4-apreldagi "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida yoshlarga xorijiy tillarni sifatli o'rgatishda ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Viloyatimizdagi universitetlar va maktablar o'rtasidagi hamkorlik ilmiy-metodik bilimlar hamda amaliyot bilan mustahkamlayapti. Natijada o'quvchilarning til bilish ko'nikmasini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish osonlashyapti. Hozir professor va dotsentlarimiz maktab o'qituvchilari uchun maxsus malaka oshirish kurslarini ochyapti. Kurslarda fanning yangi yo'nalishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari va STEAM yondashuvi asoslari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday kurslar maktab o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or innovatsiyalarni tatbiq etish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi, — deydi Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi Mehriroz Saydullayeva. — Xorijiy tillarni samarali o'qitishda xalqaro tajribadan foydalanish muhim strategik vazifa. Bu borada Finlyandiya ta'lim modeli eng samarali namuna deb ko'rilmogda. Mazkur davlatda 1-3-sinf o'quvchilarining 92 foizi chet tili (assosan ingliz tili) o'rgana boshlaydi. E'tiborlisi, 7-sinfda ularning 99 foizi kamida ikkita xorijiy tili o'zlashtiradi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'tkazgan tahlillarga ko'ra, Finlyandiya o'quvchilarining til o'rganishiga rag'bat 78 foiz. O'zbekistonda bu ko'rsatkich hozircha 52-55 foiz atrofida deb baholanmoqda. Fin ta'lim tizimida o'quv vaqtining taxminan 30 foizi kommunikativ vazifalarga, amaliy muloqot, jamoada ishlash va real senariylerde til qo'llashga yo'naltirilgan. Zamonaviy metodlar chet tili o'qitishda nafaqat tezkor, balki holatga mos, individual yondashuvni ta'minlaydi. Ular orqali o'quvchi tilni faqat grammatika darajasida emas, balki muloqot vositasi sifatida qo'llaydi. O'zlashtirgan bilimni amaliyotda sinovdan o'tkazadi. Xalqaro tillarda mustaqil fikrlay oladi. Mazkur jarayonda universitet va maktab hamkorligi muhim o'rin tutadi.

EKILGAN HAR BIR NIHOLDA EZGU NIYATLAR, ORZU-UMIDLAR MUJASSAM



Bunyod ABDULLAYEV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Endi yurtimizning har bir hududida botanika bog'lari va milliy dendrologiya bog'i barpo etilishi mana shu bo'shliqni to'ldiradi. Ya'ni "Ilm — loyiha — amaliyot" janjiri yuzaga keladi. 108 gektar maydonda barpo etilayotgan

Munosabat

in-vitro laboratoriyasi, Dorivor o'simliklar hamda Urug'chilik va seleksiya markazlari ishga tushiriladi. Bog'da jami 50 ming tup daraxt va 100 ming tup buta ekilishi rejalashtirilgan. Majmuada "Dunyo daraxtlari" hududi, 6 xil iqlim mintaqasiga xos kolleksiyalar, 1 gektarli sun'iy ko'l va sakura bog'i barpo etiladi.

Bog' shahar mikroiklimini yaxshilab, havo haroratini 2-4 daraja pasaytirish hamda namlikni 10-15 foiz oshirishga xizmat qiladi. Qisqasi, bog'da ekilgan har bir ko'chatning endi egasi, mas'uli bor.

Besh yildan buyon Prezidentimizning ezgu tashabbusi bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup ko'chat ekib kelinmoqda. Besh yil oldin ekilgan ko'chat bugun daraxtga aylandi. Ular atrof-muhit muassafoligini ta'minlash barobarida turli



nabotot va hayvonot olami uchun oshyonga aylandi.

Har bahor yurtimizga millionlab qush uchib keladi. E'tibor berib ham ko'rsangiz, bu yil qushlar har qanchogidan ham ko'p uchib kelmogda. Axir ular ham tirik jon, tinch va bexavotir joy qidirishi tabiiy, albatta. Millionlab qushni bag'riga olingan daraxtzorlarda hayot qaynaydi. Tabiiy muvozanat paydo bo'ladi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini soni ortishi hisobiga atrof-muhitga salbiy ta'sir va tashlanmalar miqdori ham ko'payib, dolzarb muammoga aylangandi. Ushbu vaziyatni jilovlash va ekologik holatni yaxshilash maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qator yangi chora-tadbirlar va rag'batlantirish tizimlari joriy etilmogda.

Yurtidoshlarimizning ham atrof-muhitga munosabati ancha o'zgardi. Har bir fuqaro o'zini

tabiat himoyachisi sifatida his qila boshladi. Ko'cha-ko'ya atrof-muhitga bepisand munosabatda bo'lgan odam borki, kim bo'lishidan qat'i nazar, jamoatchilikning noroziligi va bosimi ostida qoladi.

Bugun hududlarda mahalla raislari, otaxon va onaxonlarimiz, xotin-qizlar vakillari, barcha faollar joylarda milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizni yanada kengroq targ'ib qilib, mahalla aholisini hamjihatlik va ahillik ruhida mana shunday ezgu ishlarga chorlab, har bir ko'cha, xonadon, yo'l bo'yiga nihol va gullar, qir-adirlarga daraxt va butalar ekish ishlariga bosh bo'lmoqda. Milliy dendrologiya bog'ini barpo etish loyihasiga hamohang ravishda birgina o'sha kunning o'zida hududlarda 21 mingga yaqin yurtdoshimiz 164 gektar maydonda 88 ming tup ko'chat o'tqazdi.



Kun mavzusi

# Raqamli bank:

## QULAY, SHAFFOF VA ORTIQCHA OVORAGARCHILIKLARSIZ

### Boshlanishi 1-betda

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, mamlakat bo'yicha 433,3 mingta POS terminal, 42,3 mingta bankomat va infokiosk, 7061 ta naqd pul qabul qiluvchi qurilma hamda 70,5 milliondan ortiq bank kartasi mavjud. Bu ko'rsatkichlar nafaqat yirik shaharlarda, balki hududlarda ham raqamli to'lovlar uchun zarur infratuzilma to'liq shakllanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bank tizimi faqat texnik jihatdan emas, balki operatsion va xizmat ko'rsatish nuqtayi nazaridan ham yangi talablarda darajasiga moslashdi. Real vaqt rejimida to'lovlar tizimi, mobil bank xizmatlarining asosiy kanalga aylanishi va fintex yechimlarining keng joriy etilishi bank sektorining raqamli platformaga aylanganini ko'rsatadi. Bugun moliyaviy xizmatlar faqat bank binosi bilan cheklanmay, fuqarolarning kundalik hayotiga ham chuqur kirib borgan.

Statistik ko'rsatkichlar bu jarayonning amaliy natijalarini tasdiqlaydi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, to'lov terminalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 460,3 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 1,4 barobar oshdi. Bank kartalari soni esa 68,2 millionga yetib, yil davomida 10 foiz o'sdi. Bu esa aholining raqamli to'lov vositalariga ishonchi tobora ortib borayotganini anglatadi.

Birgina Toshkent shahrida jamoat transportida naqd pul orqali hisob-kitoblar bekor qilinishi qisqa muddatda katta natija berdi. 2025-yilda transport tizimi orqali 692 million tranzaksiya amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 36 foiz ko'pdir. Yo'lovchilar soni 206 millionga yetib, 31 foiz o'sdi. Tushum esa 644 milliard so'mni tashkil etib, 16 foiz ko'paygan. Bu raqamlar raqamli to'lovlarga o'tish aholining tabiiy va tez moslashuvi bilan kechayotganini ko'rsatadi.

Kommunal xizmatlar sohasida ham sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. 2025-yilda gaz va elektr energiyasi uchun tushumlar 23,5 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 42,7 foiz oshdi. Bu esa raqamli to'lovlar tizimi hisob-kitoblarning to'liqligi va moliyaviy intizomini ta'minlayotganini yaqqol namoyon etadi.

### Moliyaviy xavfsizlikning yangi standarti

Prezidentimizning "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan joriy yil 1-apreldan davlat xizmatlari, kommunal to'lovlar, yonilgi, ayrim tovar va xizmatlar hamda yirik qiymatdagi bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar naqdsiz shaklga o'tkazildi. Yuqorida ta'kidlaganimiz — raqamlashtirishning mantiqiy davomidir. Ushbu farmon ijrosi orqali nafaqat

iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi oshadi, balki fuqarolar manfaatini yanada ishonchli himoya qilinadi.

Ayniqsa, ko'chmas mulk va transport vositalari oldi-sotdisida joriy etilayotgan eskuro tizimi moliyaviy xavfsizlikning yangi standartini belgilaydi. Ushbu mexanizm orqali mablag'lar bankda saqlanadi va bitim faqat huquqiy jihatdan tasdiqlangandan keyin yakunlanadi. Bu esa firibgarlik holatlarini kamaytirish, tomonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba ham aynan shu yo'lning to'g'riligini tasdiqlaydi. Rivojlangan davlatlarda naqdsiz to'lovlar ustuvor va ko'plab mamlakatlarda yirik to'lovlar faqat raqamli shaklda amalga oshiriladi. Tadqiqotlar bunday tizim yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirishi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashini ko'rsatadi.

Bugun O'zbekiston ushbu yo'nalishda global tendensiyalar bilan hamnafas harakat qilish barobarida mintaqada ilg'or tajriba namunasi ham shakllantirilmog'da. Eng muhimi, yaratilayotgan tizim markazida inson manfaatlarini turibdi. Fuqaroga qulay, tezkor va xavfsiz xizmat ko'rsatish barcha islohotlarning asosiy maqsadidir.

### Xalqaro tajriba

Yevropaning sakkiz mamlakati ma'lumotlari asosida "Yashirin iqtisodiyotni raqamli to'lovlar orqali qisqartirish" mavzusida tayyorlangan



tadqiqot natijalariga ko'ra, naqdsiz to'lovlarni majburiy joriy etish yashirin iqtisodiyotni YAIMga nisbatan umumiy hisobda 3,5-8 foiz oraliqda qisqartirish imkonini beradi.

Davlatlar bo'yicha olganda, naqdsiz to'lovlar ulushi Norvegiyada 98, Buyuk Britaniyada 91, Shvetsiya, Daniya va Finlyandiyada 90, Avstraliyada 87 va Janubiy Koreyada 84 foizni tashkil qiladi.

Xorijiy davlatlarda ham yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni naqd pulsiz shaklda amalga oshirish

ko'plab tajriba mavjud. Masalan, fuqarolar tomonidan Ispaniya va Fransiyada 1000 yevrodan hamda Gretsiyada 500 yevrodan ortiq qiymatdagi to'lovlar faqat naqd pulsiz shaklda amalga oshirilishi belgilangan.

### Bugungi talablari aholi va biznes uchun nima beradi?

Mamlakatimizda moliyaviy munosabatlarning naqdsiz shakliga o'tish, birinchi navbatda, fuqarolar uchun to'lovni tezroq, tushunarliroq va xavfsizroq amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli to'lovlarda har bir operatsiya qayd etiladi. Bu esa to'lov tarixini shakllantirish, fuqarolar hamda biznes uchun bahsli holatlarda dalil bazasini yaratishga xizmat qiladi.

Muhim jihat esa, fuqaroga "yangi talab" emas, balki qulay xizmat yetib borishi, ya'ni to'lov qilish oson bo'lishi, tasdiq olish tez bo'lishi, bank va to'lov infratuzilmasi esa uzluksiz ishlashidir.

Maqsad shuki, bank infratuzilmasi tayyor holatga kelirilishi kerak. Toki yonilgi qiyos shoxobchasi kelgan fuqaro to'lov usuli sababli xizmatdan foydalana olmay qolmasin. Fuqaro benzini olish uchun keldimi, benzini qaydirdi ketishi kerak. Unda plastik karta bor-yo'qligi muammo bo'lmasligi lozim.

Ayrim izohlarda "Markaziy bank banklar yoki to'lov tashkilotlarini majburlamoqda" degan qarashlar uchramog'da. Biroq Markaziy bankning asosiy vazifasi naqdsiz hisob-kitob shakliga o'tish jarayonini muvofiqlashtirish va tizim darajasida bank infratuzilmasining tayyorligini ta'minlashdan iborat. Ya'ni Markaziy bank to'lovlarni qanday amalga oshirish bo'yicha tijorat qarorlarini belgilamaydi.

Banklar va to'lov tashkilotlari esa, o'z navbatida, iste'molchilar — mijozlar va fuqarolar uchun barcha zarur sharoitni yaratishi lozim.

Bu, avvalo, to'lov infratuzilma — bankomatlar, terminallar, naqd pulni qabul qilish va hisob-kitob mexanizmlari, shuningdek, qulay raqamli to'lov yechimlari to'liq ishlashi deganidir.

Ya'ni asosiy yondashuv bunday: fuqaro xizmatdan foydalanishda qiyalmasligi kerak. Buning uchun barcha infratuzilma elementlari oldindan tayyor va uzluksiz ishlaydigan holatda bo'lishi shart.

Naqdsiz to'lovlarga o'tish aynan bugun boshlangan jarayon emas. U so'nggi 5-6 yil davomida bosqichma-bosqich joriy etib kelinmog'ga. Bugun davlat xizmatlari, elektr energiyasi va gaz to'lovlari, shuningdek, billing tizimi orqali ko'plab to'lovlar allaqachon naqdsiz shaklga o'tgan. Aholi amalga oshirayotgan to'lovlarning katta qismi raqamli kanallari orqali o'tkazilmog'ga va bu ko'rsatkich yildan yilga barqaror o'smog'ga. Bu holat jamiyatda naqdsiz hisob-kitoblarga nisbatan ishonch va odat shakllanayotganini ko'rsatadi.

### "Nega milliy valyutada naqd pul qabul qilinmayapti, bu mening huquqim emasmi?"

Ijtimoiy tarmoqlarda shu mazmundagi savol eng ko'p berilmog'ga. Pul — shakl emas, qiymat. U naqd yoki raqamli bo'lishi mumkin, lekin har ikkisi ham bir xil milliy valyuta. Eng muhimi: pulning — sizniki. U kartada bo'ladimi yoki naqd ko'rinishda — farqi yo'q. Masalan, agar mablag'ingiz plastik kartada bo'lsa, uni istalgan vaqtda bankomat orqali naqdlashtirish mumkin. Ya'ni raqamli pul — bu "boshqa pul" emas, balki xuddi shu milliy valyutaning zamonaviy shaklidir.

Biroq bu yerda asosiy masala pulning shakli emas, uning aylanish mexanizmi va zamonaviy moliyaviy texnologiyalaridir. Bugun pul shakli rivojlanib bormog'ga va raqamli format orqali hisob-kitob qilish tezkorlik, xavfsizlik va qulaylikni ta'minlaydi.

Kommunal to'lovlar bo'yicha ham aholi uchun qator amaliy qulayliklar yaratilgan. Xususan, elektr energiyasi, gaz yoki suv uchun to'lovlarni infokiosklar, barcha to'lov tashkilotlari hamda banklarning mobil ilovalari orqali amalga oshirish imkonini beradi. Bunda plastik karta mavjud bo'lsa, uni to'ldirish orqali, karta mavjud bo'lmagan holatlarda esa infokioskning o'zi orqali to'lovni tez va qulay amalga oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa to'lovlarni faqat bank bo'limiga borib emas, balki kundalik hayotga yaqin va qulay infratuzilma orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Avvalgi amaliyotda ayrim holatlarda kommunal to'lovlarni naqd pul shaklida qabul qilish uchun mas'ul xodimlar uyuma-uy yurib to'lovlarni yiqqan bo'lsa, endi bunday

amaliyotga ehtiyoj bo'lmaydi. Bu, bir jihatdan, xonadon egalari ortiqcha bezovta qilishning oldini olsa, ikkinchi tomondan, naqd pulni yig'ish bilan bog'liq tashkiliy va moliyaviy xarajatlar kamayadi.

Masalan, aholining gaz va elektr iste'moli uchun tushumlar 2025-yilda 23,5 trillion so'mni tashkil etib, 2024-yildagi (16,5 trillion so'm)ga nisbatan 42,7 foiz oshishiga erishilgan. Bu esa kommunal xizmat uchun naqd pulsiz to'lovlarning joriy etilishi tushumlar to'liqligini ta'minlashga imkoniyat yaratayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mamlakatda raqamli to'lovlar infratuzilmasining rivojlanishi yirik raqamli ekotizimlar misolida ham ko'zga tashlanmog'ga. Jumladan, marketpleys mobil ilovalari hamda raqamli banklar va mobil ilovalar doirasida onlayn savdo, to'lovlar, pul o'tkazmalari, kommunal hisob-kitoblar, bo'lib to'lash va biznes uchun masofaviy moliyaviy xizmatlar o'zaro uyg'unlashib bormog'ga. Natijada aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish jarayoni soddalashtirib, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning tezligi, qulayligi va ommabopligi ortmog'ga.

### An'anaviylikdan zamonaviylikka

Markaziy bank ushbu jarayonda faqat tartibga soluvchi emas, balki amaliy infratuzilma yaratuvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida ishtirok etmog'ga. So'nggi yillarda bank sektori an'anaviy moliyaviy institut modelidan bosqichma-bosqich raqamli platforma va ekotizim modeliga o'tmog'ga. Bu esa moliyaviy xizmatlarning faqat bank binosi doirasida emas, balki fuqarolarning kundalik turmushiga chuqur integratsiyalashayotganini anglatadi.

Ayni paytda ko'chmas mulk va avtomobil oldi-sotdisida bo'yicha amaliy operatsion model — eskuro hisobvarag'i tizimi ham izchil yo'lga qo'yilmog'ga. Eskuro hisobvarag'i tizimi ko'chmas mulk va avtotransport vositalari oldi-sotdisida to'lovlarning xavfsiz va shaffof amalga oshirilishini ta'minlaydigan muhim mexanizmdir. Ushbu tartibga ko'ra, xaridor banka murojaat qilib, eskuro hisobvarag'ini ochadi va mablag'ni naqd yoki naqdsiz shaklda ushbu hisobvaragga kiritadi. Notarius bitimni tasdiqlagandan so'ng bank mablag'ni sotuvchiga o'tkazadi. Agar bitim tuzilmasa yoki bekor qilinsa, pul xaridorga qaytariladi.

Bu tizim tomonlar manfaatini himoya qiladi, hisob-kitoblarda ishonchni oshiradi va bitimlarning huquqiy aniqligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, xizmat haqi fuqarolar uchun cheklangan miqdorda belgilangan. Ko'chmas mulk uchun bazaviy hisoblash miqdoriging 50 foizidan (amalda 206 ming so'm), avtotransport vositalari uchun bazaviy hisoblash miqdoriging 25 foizidan (amalda 103 ming so'm) oshmaydi. Bitim bekor qilnganda esa mablag'ni qaytarish uchun komissiya undirilmaydi.

Amaliyotda ushbu tizimni qulay joriy etish maqsadida 1130 ga yaqin notarius bank tizimiga birkiritildi. Bank xodimlarini o'qitish, avtomobil bozorlari yaqinida bank xizmatlarini kengaytirish hamda dam olish kunlari ham xizmat ko'rsatish bo'yicha choralar ko'rildi.

Har qanday islohotning muvaffaqiyati nafaqat texnik va huquqiy tayyorgarlikka, balki aholining xabardorligi va yangi tizimdan foydalanish darajasiga ham bevosita bog'liq. Shu bois, Markaziy bank tegishli vazirlik va idoralar, hududiy tuzilmalar hamda tijorat banklari bilan hamkorlikda keng ko'lamli tushuntirish va targ'ibotlar o'tkazmog'ga. Joylarda aholi, tadbirkorlar, mahalla vakillari, ijtimoiy soha xodimlari va boshqa maqsadli auditoriyalar bilan uchrashuvlar tashkil etilmog'ga. Savollarga javob berilmog'ga, yangi tartib mohiyati sodda, ravon tushuntirilmog'ga.

Yunus BO'RONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

### Nuqtayi nazar

Yaqin kunlarda pilla yetishtirish jarayoni boshlanadi. Xalq orasida "pilla — tilla" degan ibora ko'p qo'llanadi. Bu jumla pillaning moddiy qadri va uni yetishtirishdagi mushkul, sabr va intizom talab qiluvchi mehnatni e'zozlaydi. Ipak qurtini boqish, urug'ini tayyorlash, parvarish va terim ishlari har bir bosqichda e'tibor va mas'uliyatni talab etadi.

Har bir tutzor, har bir urug' va har bir terim qadimi xalq hayotining bir bo'lagiga aylanib, avlodlar orasida mehnat tarbiyasi va sabrni mustahkamlaydi. Ipak yetishtiruvchilar bu jarayon orqali faqat daromad topish bilan cheklanmay, mehnat va intizomni, shuningdek, avlodlarga hunarmandchilik an'analarini o'rgatadi.

Ushbu sanoat asrlar davomida aholining turmush darajasi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlab kelgan. Har bir qishloq va olanda pilla yetishtirish orqali bolalar ta'lim oladi, oilaviy daromad va hayot sifati ko'tariladi. Shu bilan birga, milliy an'analar va hunarmandchilik merosi saqlanadi.

Pilla yetishtirish jarayonining qiyinligi va mavsumiyligi soha ahlini to'xtatmaydigan Yurtimizning turli hududida ipak qurtini boqish



# IPAKCHILIK:

## YARATILGAN SHAROITLAR IQTISODIYOT UCHUN MUHIM IMKONIYAT

bilan shug'ullanuvchi fuqarolar soni yildan yilga ortib, sohaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatmog'ga. Shuningdek, pilla jahon bozorida eng qadri mahsulotlardan biri sifatida baholalanadi va qiymati oshib bormog'ga.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 6-martdagi "Ipakchilik sohasini yangi tizim asosida rivojlantirish hamda ozuqa bazasini mustahkamlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori jahhda amalga oshiriladigan masalalarga yangicha yondashuvni taqdim etdi. Qaror orqali pilla va ipakchilik sohasini rivojlantirish, ozuqa bazasini mustahkamlash va qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan muhim choralar belgilandi.

Hujjatda klasterlar tizimini rag'batlantirish bo'yicha belgilab berilgan soliq imtiyozlari soha uchun yangi davr boshlanganini ko'rsatadi. Mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilinishi pilla yetishtiruvchilarning ma'muriy yuki sezilarli darajada yengillashishiga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, kichik va o'rta qishloq xo'jaligi klasterlarini shakllantirish va uzluksizlashtirishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Qolaversa, 4 "A" va undan yuqori sertifikatga ega korxonalar uchun foyda solig'i stavkasini 2 foiz darajasiga tushirish taklif etilgani sifat hamda eksport yo'nalishida ish yurituvchi korxonalar uchun katta stimuldur. Shu munosabat bilan soliq yuki kamaytirilishi orqali tadbirkorlarning investitsiya kiritish qobiliyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Ipak qurti urug'ini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar uchun ham muhim ijtimoiy yo'nalishdagi qulayliklar nazarda tutilgan. Qarorga ko'ra, mavsumiy ishchilarni ishga olganda ulardan daromad solig'ini undirmaslik belgilanmog'ga. Bu ishchi xodimlar uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi, ularning mehnatiga ijobiy munosabati mustahkamlaydi va sohaqa qiziqishni oshiradi. O'z navbatida, bunday munosabat ish beruvchilar uchun ham muhim: mavsumiy mehnat resurslariga ehtiyoj muntazam qoplanadi, va ishchilarning o'ziga xos ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, klaster ishtirokchilari uchun zarur uskunalar, texnika va parvarish vositalarini sotib olish maqsadida bazaviy hisoblash

miqdoriging 50 baravarigacha bo'lgan mablag' to'la foizsiz kredit shaklida 3-yil muddatga beriladi. Bu mexanizm turli masofadagi va moliyaviy imkoniyati cheklangan fermerlar hamda kichik biznes uchun yirik iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Ancha oldin kredit olish qiyinligi yoki katta foiz majburiyati ko'pchilikni diqqat qilgan bo'lsa, endi bunday to'siq bartaraf etilib, klaster aniq rejalar bilan rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Urug'chilik korxonalariga ham ishchi kuchini jalb etishga doir yangi choralar kiritilgan. Qaror bilan ipak qurti urug'larini tayyorlashga jalb etilgan har bir mavsumiy ishchi oylik ish haqining 50 foizigacha, ammo mehnatga haq to'lash bo'yicha eng kam miqdoriging ikki

baravaridan oshmaydigan qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilinishi belgilanmog'ga. Mazkur mexanizmlar mehnat bozorida muvozanatni saqlash, milliy klasterlar rivojini qo'llab-quvvatlash bilan birga qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'tgan yili respublikada 30 ming tonnadan ortiq pilla yetishtirildi. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda yanada oshishi kutilmog'ga. 2030-yilga qadar mamlakatda 200 million tut pul ko'chati ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, 3000 gektar maydonda yangi tutzorlar barpo etish orqali 6000 kambag'al oilani pilla yetishtirish jarayoniga jalb qilish ko'zda tutilgan, — deydi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi boshqarma boshlig'i Azimjon Botirov. — Soha rivoji ozuqa bazasiga bog'liqligi hisobga olingan. Yangi barpo etilgan tutzorlarda tomchilab sug'orish tizimi joriy qilingan va har bir gektar uchun 8 million so'mgacha subsidiya ajratiladi. Maydoni ikki gektar va undan katta bo'lgan tutzorlarda quduqlar, nasos stansiyalari va suv inshootlarini tashkil qilish uchun 150 million so'mgacha subsidiya berilishi belgilangan.

Davlat tomonidan joriy etilgan soliq va moliyaviy imtiyozlar, jumladan, subsidiya va imtiyozli kreditlar sohani modernizatsiya qilish va klasterlar orqali uzluksiz iqtisodiy faoliyatni ta'minlash imkonini beradi.

Yangi tutzorlarni barpo etish va mavsumiy ishchilarning mehnatini qo'llab-quvvatlash choralarini qishloq aholisining daromadini oshirish, ijtimoiy himoyasini mustahkamlash hamda pilla yetishtirishga qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news

Inson qadri uchun

Endokrin kasalliklar orasida qalqonsimon bez, qandli diabet dunyo bo'ylab keng tarqalayotgani sir emas. Gormon ishlab chiqarish faoliyatining buzilishi bilan kechadigan bu xastalik tanadagi deyarli barcha tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, bepushlik, asab tizimi va ruhiy holatning yomonlashishi, vazn ortishi yoki kamayishi, osteoporoz va hatto nogironlik yoki o'limga olib borishi mumkin.

MAHALLA – TIBBIYOT –

ZAMONAVIY TEKNOLOGIYA INTEGRATSIYASI

Endokrin kasalliklarni aniqlashda qo'l keladi

Mamlakatimizda endokrin kasalliklarni erta aniqlash, profilaktikasini ta'minlash va davolashga katta e'tibor qaratilmoqda. Takomillashtirilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, jumladan, kattalar orasida qandli diabetni erta aniqlash ko'rsatkichini 70 foizgacha oshirish, qandli diabet kasalligi bor bemorlarni davolash qamrovini 100 foizga yetkazish vazifasi belgilangan.

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda uning hududlardagi filiallari, dispanser xodimlari, tuman endokrinologlari ishtirokida o'tgan yili 445 mahalla fuqarolar yig'inida 40 yoshdan oshgan aholi orasida qandli diabetni erta aniqlash maqsadida skrining tekshiruvlari o'tkazildi. Jarayonda 4263 yurtdoshimizda ilk bor qandli diabet, 11 ming 682 nafarida diabet oldi holati, 14 ming 260 nafarida semizlik va 43 ming 316 nafarida ortiqcha vazn aniqlangan. Shu bois, bu boradagi targ'ibot ishlari jonlantirilyapti. Mobil endokrinolog xizmati joriy qilindi. Bu esa uy sharoitida shifokor va laboratoriya xizmatini ko'rsatish imkonini berib bemorlar uchun katta qulaylik yaratadi. Markazning 12 filialida shifokorlardan maxsus trenerlar tayyorlandi. Aholi orasida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qiluvchi loyihalar ishlab chiqildi.

Mahallalarda skrining tekshiruvlarining foydasi va aholi orasida sog'lom turmush tarzini joriy etishning ahamiyati tushuntirilyapti. To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar berib borilmoqda.

Misol uchun, qandli diabet ikkinchi turining chekinishida insonning sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishi juda muhim, — deydi tibbiyot fanlari doktori Sevara Faxriddinova. — Yangi aniqlangan qandli diabet ikkinchi turi ko'p hollarda semizlik va noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq. Bu holatda tana insulini to'g'ri ishlata olmaydi. Agar ortiqcha vazn yo'qotilsa, sog'lom ovqatlanish va harakat hayot tarziga aylansa, qandli diabet ikkinchi turi remissiyaga, ya'ni vaqtincha yo'qolishga kiradi. Bu shuni anglatadiki, qand miqdori me'yorga tushadi, belgilar yo'qoladi, dori kerak bo'lmaydi. Tadiqotlarga ko'ra, 10-15 foiz tana vaznidan xalos bo'lgan insonlarda qandli diabet ikkinchi turi remissiyasi ehtimoli juda yuqori bo'ladi. Ammo og'irlik yana orsa,

afsuski, qandli diabet ikkinchi turi qaytadi. Bu holatda butunlay tuzalish emas, ammo nazorat ostida uzoq davom etadigan sog'lom holatga qaytish imkoniyati bor. Har birimiz boshlashimiz mumkin bo'lgan eng muhim qadam harakat va ovqatlanish odatlarimizni o'zgartirishdir.

Qandli diabet ikkinchi turiga chalingan bemorlar uchun terapevtik o'qitish milliy



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

maktablari tashkil etilyotir. Hududiy endokrinologiya dispanserlari va oilaviy poliklinikalar huzurida faoliyat yuritadigan ushbu maktablarda oilaviy shifokorlar tasdiqlangan davolash algoritmlari asosida bemorlarga ortiqcha vazn, diabet oldi holati va diabetni boshqarishni o'rgatadi. Hayot sifatini oshirish maqsadida bemorlarga kasallik mohiyati, ovqatlanish tarbi va jismoniy faollik haqida tushuntirish beriladi. Qondagi qand miqdorini nazorat qilish orqali o'tkir va surunkali asoratlarning oldini olish, o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan.

O'tgan yili bu borada sezilarli natijalarga erishdik, — deydi Akademik Y.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, professor Anvar Alimov. — Birgina markazning o'zida 36 turdagi tashxislash va davolash usuli o'zlashtirilgan bo'lsa,

filiallarda 66 xildagi diagnostika, 45 turdagi davolash usuli yo'lga qo'yildi. Tumanlarda 45 xil diagnostika va 42 turdagi davolash ushbu maktablarda oilaviy shifokorlar tasdiqlangan davolash algoritmlari asosida bemorlarga ortiqcha vazn, diabet oldi holati va diabetni boshqarishni o'rgatadi. Hayot sifatini oshirish maqsadida bemorlarga kasallik mohiyati, ovqatlanish tarbi va jismoniy faollik haqida tushuntirish beriladi. Qondagi qand miqdorini nazorat qilish orqali o'tkir va surunkali asoratlarning oldini olish, o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan.

O'tgan yili bu borada sezilarli natijalarga erishdik, — deydi Akademik Y.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, professor Anvar Alimov. — Birgina markazning o'zida 36 turdagi tashxislash va davolash usuli o'zlashtirilgan bo'lsa,

Joriy yildagi maqsadlarimiz ancha zalvorli, — deydi Anvar Alimov. — Respublika bo'yicha birlamchi bo'g'inda endokrin kasalliklarni erta aniqlash, to'g'ri yo'naltirish va asoratlarning oldini olish ko'zda tutilgan bo'lib, bu boradagi ishlar boshlab yuborildi.

Yil davomida yurtimizda 35 yoshdan oshgan 8 million kishi diabet va diabetoldi holati bo'yicha skriningdan o'tkaziladi. 45 yoshdan oshgan ayollar orasida menopauza bilan bog'liq endokrin kasalliklar bo'yicha tizim yaratiladi. Uning doirasida oilaviy shifokor va doylar uchun o'quv dasturlari, bemor ayollar uchun qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Mamlakat bo'ylab yod tanqisligining epidemiologik monitoringini o'tkazish bu yildagi eng muhim vazifalarimizdan. Ayni paytda barcha hududda yangi 4 ta diagnostika va 2 ta davolash usulini joriy qilish harakatidamiz. Yil davomida markazimiz va filiallar faoliyatiga sun'iy intellekt, ilg'or raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etamiz. Bu bilan tibbiy xizmat sifatini oshirish, boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilish, tibbiyot xodimlari ish samaradorligini oshirishni ko'zlaganmiz.

Muassasa klinikasi va filiallarda "Raqamli situatsion markaz"lar tashkil etish ko'zda tutilgan. Qolaversa, joriy yil yanvarda markazda 2 ta tibbiy qurilma sun'iy intellekt yordamida dasturlashtirilgan. Bu yaqin orada tibbiy qurilmalar olinayotgan ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish, shifokorlar tashxis qo'yishga sarflaydigan vaqtni qisqartirish hamda bemor bilan to'g'ridan to'g'ri mulototga ajratiladigan vaqtning ko'payishiga xizmat qiladi.

Natijada markaz va filiallarda raqamli boshqaruvning yagona tizimi shakllanadi, — deydi Anvar Alimov. — Sun'iy intellekt faoliyatimizning muhim qismiga aylanadi. Tibbiy xizmat sifati yanada oshiriladi. Endokrinologik yordam, skrining tekshiruvlari yanada tezkor, aniq va samarali bo'ladi. Mahalla — tibbiyot — raqamli texnologiya integratsiyasi yo'lga qo'yiladi.

Umuman, sohani xalqqa yaqinlashtirish, ixtisoslashtirgan tibbiy xizmatni quyiga tushirish, pirovardida aholini tibbiyotdan rozi qilish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

R. MADIYEVA, jurnalist



Salomatlik

"Aqlli" SHIFOXONA

bemorlarga sifatli xizmat taqdim qilmoqda

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida "aqlli" shifoxona ish boshladi. Zamonaviy ko'p tarmoqli klinika o'ziga xos qulaylik va imkoniyatlarga ega.

barcha bosqich raqamlashtirilgan, — deydi klinika shifokori Shohruh Ahmadaliyev. — Bemor klinikaga kelgach, infokiosklar orqali mustaqil ravishda, inson omilisiz ro'yxatdan o'tadi. Keyingi bosqichda hamshiralardan tomonidan

Farg'onadagi 2-shahar shifoxonasida negizida barpo etilgan mazkur klinika sohadagi islohotlar samarasi o'laroq yuz bergan. Unda aholiga qulay va zamonaviy xizmat turlari taqdim etilmoqda. Klinika to'liq sun'iy intellekt texnologiyalari bilan jihozlangan. U ilk kompleks Smart AI shifoxonalardan biridir. Unda umumiy terapiya, xirurgiya, anesteziologiya va reanimatsiya, qabul — diagnostika, fizioterapiya bo'limlari bor.

Palatalardagi yotoq karavatlari 3 funktsiyali pult orqali boshqariladi. Hamshiralardan bilan bog'lanish uchun elektron chaqiruv "Nurse Call System" panellari o'rnatilgan. Yo'laklardagi yirik monitorlar orqali barcha murojaatlar onlayn kuzatib boriladi. Bemor murojaat qilgan paytda uning palatasi eshigi ustida vizual signal (qizil indikator) yoqiladi. Bu esa tezkor reaksiya mexanizmini ta'minlaydi. Qolaversa, sanitariya xonalardagi SOS tugmalar favqulodda holatlarda darhol tibbiy xodimlarni jalb qilish imkonini beradi.

Smart AI shifoxonamizda bemorlarning murojaatidan boshlab davolanishigacha bo'lgan



raqamli monitoring tizimi orqali individual yo'nalish bo'yicha tegishli bo'limlarga yo'naltiriladi. Mazkur tizim "raqamli bemor yo'li" konsepsiyasiga asoslangan. U xizmat ko'rsatish tezligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Tashxis qo'yish jarayoni ko'p bosqichli analitik model asosida amalga oshiriladi. Avvalo, davolovchi shifokorning klinik xulosasi olinadi. So'ng bemorning barcha laborator va instrumental ma'lumotlari sun'iy intellekt tizimiga uzatiladi. Mazkur tizim 5 ta mustaqil AI shifokor modullidan iborat. Har biri turli algoritmik yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Yakuniy tashxis sun'iy intellektning konsensus modeli orqali shakllantiriladi. Bu yondashuv dalillariga asoslangan tibbiyot tamoyillarini amaliyotga chuqur integratsiyalashga xizmat qiladi.

AI shifokor tizimi barcha turdagi laborator analizlar, radiologik tasvirlar, klinik belgilar va ma'lumotlarni kompleks tahlil qiladi. Bu shifokor tashxisini aniqlashtiradi, differensial tashxisni kengaytiradi. U eng samarali davolash yo'lini taklif etadi. Natijada diagnostik xatolar kamayadi. Klinik qaror qabul qilish sifati oshib, individuallashtirgan davolash modeli joriy etiladi.

"Aqlli" shifoxonada oliy hamshiralik ishi yo'nalishi talabalarini tayyorlaydigan innovatsion o'quv-amaliy markaz tashkil etildi, — deydi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti kafedra mudiri Ibrodaxon Iminoxunova. — Bu yerda talabalar muhim ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Hamshiralik faoliyatida klinik qaror qabul qilish, bemor parvarishi algoritmlari, simulatsion treninglar va raqamli monitoring tizimlari bilan ishlash shular jumlasidan. Italiya bilan hamkorlik doirasida tashkil etilgan ushbu markazda ta'lim Yevropa standartlari asosida ishlab chiqilgan. Unda dual ta'lim modeli qo'llanilib, talabalar nazariy bilimlarni klinik muhitda amaliyot bilan integratsiyalashgan holda o'zlashtiradi. Bu esa yangi avlod hamshiralarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



2026-yil 5-aprel, 66-son



Bugunning gapi

Shifoxonada ish qizg'in, hayot qaynamoqda. Kimdir xavotir bilan yaqinlarining salomatligi haqida xabar kutayapti. "Tez yordam" mashinalari tinmay qatnaydi. Ular yana qaysidir og'ir ahvoldagi bemorni ishonchli qo'llarga topshiryapti. Jonlantirish bo'limida kimlardir hayot bilan kurashayotgan bo'lsa, qaysidir palatada salomatligi yaxshilangan bemorlar shifokorlardan minnatdor, oilasi bag'riga qaytishni intizorlik bilan kutayapti. Salomatlik posbonlari esa o'zini ham unutib, bemorlarni sog'lom hayotga qaytarish uchun bor bilim va mahoratini namoyon etaypti. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy filialida har kuni ana shunday jarayonlarni kuzatish mumkin.

ILM VA AMALIYOT UYG'UNLIGI


Filial binosi 2023-yil mukammal ta'mirlandi. Muassasaning infratuzilmasi zamonaviy talablar asosida yangilanib, bemorlar va tibbiyot xodimlari uchun yanada qulay sharoit yaratildi. Yangi tibbiy bo'limlar tashkil etildi. Xususan, angiografiya, yurak-qon tomir xirurgiyasi bo'limi, shuningdek, xirurgik reanimatsiya bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, bugun yurak-qon tomir kasalliklari tobora yasharib, dunyo kardiologlarini tashvishga solmoqda. Shunday paytda angiografiya bo'limi tashkil etilgan, xorijda malaka oshirib qaytgan mutaxassislarimiz tibbiy xizmat ko'rsatayotgan bemorlarni o'z vaqtida tekshiruvdan o'tkazish, tashxis qo'yish va davolash, jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish imkonini beradi.

Hozir filialimizda yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan bemorlarni tezkor qabul qilish, tashxislash va davolash uchun barcha sharoit yaratilgan, — deydi jarroh Sharifjon Nizomov. — Buning uchun jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy texnologiyalar olib kelingan. Mutaxassislarimiz xorijda malaka oshirib, tajriba to'plab kelishi ham ayni muddabo'lmog'da. Bu borada ham zarur sharoit yaratilgan. O'zim 2021-2023-yillarda Rossiya xalqlar do'stligi universiteti (RUDN)ning ordinatura bosqichida

o'tkazgan bemorlarda kasallikning salbiy va xavfli oqibatlarini kamaytirish maqsadida kardiologlar jamoasi tadqiqotlar o'tkazmoqda. Filialda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida ustoz-shogird an'anasi ham yo'lga qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari tibbiyotni quyi tizimdan boshlab rivojlantirish, aholiga yaqinlashtirish borasida aniq vazifalarni bergan, jumladan, poytaxtda faoliyat yuritgan tajribali mutaxassislarni viloyatlariga rahbar sifatida yuborish tashabbusini ilgari surgan edi. Bu tajriba qisqa muddatda samara bera boshladi. Birgina Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy filialida 2023-yildan boshlab katta o'zgarishlar va natijalarga erishildi. Hatto faqat poytaxtda amalga oshirish mumkin bo'lgan jarrohlik amaliyotlarini viloyatda o'tkazish yo'lga qo'yildi.

2023-yili filialda 4009 ta jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, — deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy filiali direktori o'rinbosari Murtazo Xojoyev. — Ularning 1536 tasi yuqori texnologik amaliyotlardir. 13 ming 489 bemor stasionar sharoitda davolandi. 2024-yili jarrohlik amaliyotlarining soni 4021 tani tashkil etdi. Shulardan 1734 tasi zamonaviy yuqori texnologik amaliyotlar. Ushbu davrda filialda



o'qib, uch yil amaliyotda malaka oshirdim. Hozir ushbu markazda ham murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazib, bemorlarga sog'lom hayotga qaytishiga ko'maklashmoqdamiz. Muhimi, endi bunday jarrohlik amaliyoti uchun xorijga borish shart emas.

Markazda kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2023-yilda qadar unda 2 nafar tibbiyot fanlari nomzodi faoliyat yuritirildi. 2023-2025-yillarda 15 shifokor tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini muvaffaqiyatli yo'qoldi. Shuningdek, 2 nafar kafedra dotsenti tayyorlandi. Kardiolog Laziza Shodiyeva ham imkoniyatlardan foydalanib, tibbiyotdagi dolzarb mavzu — yurak kasalliklari bo'yicha ilmiy izlanishga qo'l urgan.

Filialimizda yurak-qon tomir, infarkt va insult kasalliklarining oldini olish bo'yicha qator ishlar bajarilmoqda, — deydi kardiolog Laziza Shodiyeva. — Yaqinda alohida kardiologlar bo'limi ochilishi kutilyapti. Ayni vaqtda kardiologiya yo'nalishi bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazayapman. Markazimizda ilmiy salohiyatli xodimlar yildan yilga ko'paymoqda. Hozir 30 ga yaqin ilmiy xodim ishlayapti. Olti nafar yosh hamkasbimiz ilmiy ishini yoqlash arafasida. Tez orada ular ham salohiyatli xodimlar safidan joy oladi.

2026-2028-yillar uchun yana 8 nafar shifokor tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, 2 nafar mutaxassis esa tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun ilmiy tadqiqotlar bilan mashg'ul. Yurak-qon tomir kasalliklarining xavfli darajasi yuqori. Shu bois, uning oldini olish, erta aniqlash, samarali muolaja qilish, qolaversa, yurak infarkti, insulini boshidan

12 ming 980 nafar bemorga malakali tibbiy yordam ko'rsatildi. 2025-yilda esa operatsiyalar soni yanada oshib, 4080 taga yetdi. 13 ming 78 bemor filialda davolanib, sog'lom hayotga qaytdi. Ushbu ko'rsatkich muassasada zamonaviy tibbiy xizmatlar hajmi va sifati yil sayin ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, 2025-yil apreldan boshlab filialda qo'shimcha ravishda pulli tibbiy xizmatlar ham yo'lga qo'yildi. Qisqa muddatda ushbu xizmat turlari bo'yicha 245 ta operatsiya bajarildi. Bu aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar turini kengaytirish, imkoniyatlarni yanada oshirish va muassasaning xizmat ko'rsatish salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Buyrak yetishmovchiligi bilan og'rikan va uning so'nggi bosqichida yashayotgan bemorlar uchun gemodializ muhojasi o'ta muhim. Davlatimiz rahbari tashabbus bilan bunday bemorlarga qulaylik yaratish maqsadida filial zamonaviy uskunalar bilan ta'minlangan va bepul muolaja olish imkoniyati yaratilgan.

Tarbiy-intizom, sifati tibbiy xizmat bilan bir qatorda, tozalik va san'atkorlik ham bor joyda salomatlik bo'ladi. Shundan kelib chiqib, filialda obodonlashtirish va ko'kalmaszorlashtirish ishlari doim e'tiborda. Ayniqsa, chiqindixonaga aylangan maydon tozalani, avtoturargohga aylantirilyapti. Bu avtomashinalar qatnovida tartibni ta'minlab, "tez yordam" mashinalarining harakatiga qulaylik yaratmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

SOG'LOM TURMUSH SAHIFASI

# HARAKATLI XALQ O'YINLARI:

## halollik, chaptastlik, jasorat va oriyat bahsi

Milliy o'yinlar haqida yozishga chog'lanar ekanman, bolalik xotiralari bir zum ko'z oldimda jonlandi. Oqshom chog'i mo'jzagina mahallamizda hayot jo'sh urar, hovlilardan chiqib kelgan bolalarning samimiyatga to'la kulgilari o'yin ishtiyoqi bilan tutashib, tuproq hidi kelib turgan mahalla qiyofasiga o'zgacha mazmun, ruh bag'ishlardi.

Kinotamasidek ko'z oldimdan o'tayotgan tasvirlarda samimiyat balqib turgan yuzlar, jarangli kulgilari, tortishuvlar birin-кетин o'tib boradi. Eng sevimli o'yinimiz "Oq terakmi, ko'k terak"ka hozirlik ko'ramiz. Tezda ikki guruhga bo'linib, bir-birimizga qarshi saf tortamiz. Guruhimiz yetakchisi raqib tomonga qarab baland ovozda so'raydi:

— Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?  
— Gulchehra kerak!

Gulchehra yugurgancha raqib safini yorib o'tishga harakat qiladi. Bu o'yinning eng hayajonli lahzasidir. Shiddat zarbiga dosh bera olmagan raqib jamoasining safi buziladi. U o'zi bilan qarshi tomondan bir bolani olib ketadi. Keyin navbat bilan yana chaqiriladi...

Bolalik vaqtni his qilmaydi. Allamahalgacha davom etgan o'yindan so'ng kattalarning qistovini bilan yuzlarimiz hayajon va harakatdan bo'g'riqqancha uy-uyimizga tarqalamiz.

O'yinlarning ham ruhi bo'lsa kerak. Bu ruh o'sha paytda harakatchan, vujudi va qarashlari sog'lom, chiniqqan bolalarga do'stlik va hayotdan zavq olish qobiliyatini ulashgan bo'lsa ajab emas. O'yinlardan ruhu tanga ko'chgan jismoniy kuch, tezkorlik, jamoaviylik va mardlik sifati keyinchalik iroda, sabr, chidam, qayta urinib ko'rish kabi fazilatlarini yuzaga keltiradi. Bular esa hayot yo'larida bot-bot qo'l keldi, barchamizni sinovlar qarshisida mardona turish, og'ir vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik, qiyinchiliklarga qaramay harakatda davom etishga o'rgatadi.

### Shu kunlarda...

Xalq o'yinlari hamisha yosh avlodni halollik, chaptastlik, jasorat, oriyat kabi insoniy fazilatlar, jismonan baquvvat, sog'lom bo'lishga undagan. Orzu-istaklar va intilishlar ifodasi bo'lgan bo'yinlar sayillar, bayramlarga ko'rk bag'ishlagan. Kurashlarda halol, mard polvon, uloqda chaptast va mohir chavandoz olqishilgan. Deyarli barcha harakatlar zamiridan mehnat va jismoniy tarbiyaga oshnolik, sog'lom avlod orzusi o'rin olgan.

Ana shu ezgu an'ana bugungi kunda yangicha ma'no va mazmun bilan davom ettirilmoqda. Shu kunlarda olis qishloqlar, tog' yon bag'irlari, dalalar va yaylovlarda bahorgi sayillar bo'lib o'tyapti. Har bir hududga xos bo'lgan xalq o'yinlari, tomoshalar tashkil etilmogda. Harakati o'yinlar zamiridagi elu yurt xizmatiga kamarbastalik, vatanga muhabbat tuyg'ularini his qilish qiyin emas. Qolaversa, sog'lom turmush tarzi shakllanishida ularning o'rni alohida.

Izlanishlar harakati o'yinlar funksional organlar faoliyatini boshqaruvchi markaziy nerv tizimiga har tomonlama ijobiy ta'sir etishini isbotlagan. O'yin davomida bolalar muayyan rollarga, obrazlarga kirishi ularda izlash, ijodkorlik, topqirlik, zukkolik kabi xislatlar, xotira, diqqat, idrok, tafakkur, iroda kabi qobiliyat, mardlik, botirlik, jasurlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Bolalarning jismonan salomatligi, sog'lom ruhiyati kamol topishida bu o'yinlarning ahamiyati katta.

— Xalq o'yinlari erkaklar, ayollar va aralash o'yin turlariga bo'linadi, — deydi filologiya fanlari doktori, professor Shomirza Turdumov. — Masalan, qizlar o'ynaydigan "to'p tosh"da qo'l va ko'z harakatlari uyg'unligi vositasidagi harakatlar insonning fikrini bir joyga jamlashi bilan xarakterlanadi. Qiz bola toshni bir joyga jamlaydi, sanaydi va keyin sochib yuboradi. O'yin paytida o'ziga xos ohang bilan qo'shiq aytadi. Qo'shiq ohangi qo'l harakatlari bilan uyg'un, bu esa butun vujud va ruhga osoyishtalik bag'ishlaydi.

Xalqimizda "po'ta soldi" degan o'yin bor. Po'ta — belbog' degani. Bu o'yinni qizlar ham, o'g'il bolalar ham davra bo'lib o'ynaydi. U ishtirokchilarni yugurishga undaydi. Yugurayotgan bola belbog'ni olishga ulgurishi kerak. Chaptastlik, chaptastlik vujudni silkitib, mushaklarni harakatlarga keltiradi. O'pka to'yib nafas oladi. "Quvlashmashoch", "mokki" o'yinlari yurish, yugurishni rag'batlantirsa, "qarmoqcha", "do'ngdan do'ngga", "qarichma-qarich" o'yinlarida to'xtash, sakrash talab etiladi. "Tortishmashoch", "kun va tun", "ko'p uchun kurash", "otib qochar" o'yinlari esa kuch, tezkorlik, chidamkorlik, egiluvchanlikka o'rgatadi.

"Chillak" "tortishmashoch", "supur-supur", "tosh ko'tarish", "ot ustida kurash", "ko'pkari", "lanka", "arqon tortish" o'yinlari haqida katta avlod vakillari yaxshi biladi. Bularning barchasi bir vaqtning o'zida ham jismoniy, ham ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi.

Masalan, "chillak" o'yinida bir zum nafas olmaslik sharti bor. O'yin natijasiga ko'ra, yutqazgan tomon nafas olmasdan yutgan tomonni belgilangan masofadan olib kelishi kerak. Nafasni ushlab turish talab etiladi, bu esa o'pka kengayishiga sabab bo'ladi. O'pkaning kengayishi yurak-qon tomirlari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyoda eng ko'p uchraydigan onkologik kasallik turi — o'pka saratoni. Har yili 2,5 millionga yaqin kishiga shu tashxis qo'yiladi. Har qanday kasallikdan himoya insonning turmush tarzi, xatti-harakati bilan bog'liqligini inobatga olsak, harakati o'yinlar, ular orqali vujudga keladigan sog'lom jism va ruhiyat xastaliklarning ajoyib profilaktikasi ekani ayon bo'ladi.

### Yovqurlar bellashuvi

Bolaligimda bobomning ikkita nonni belbog'iga tugib, olis tog'li qishloqqa, ko'pkariga otlanganiga ko'p bor guvoh bo'lganman. Bobom sog'lom va baquvvat, o'ktam qarashlarida hayotning chuqur ma'nosi bor inson edi. U har gal ko'pkari haqida gapirarkan, ot ustida shamoldek yelgan kunlari xotirasida jonlanar, yorqin va shukuhli g'alabalar haqidagi hikoyalarni biz g'urur va hayajon bilan tinglardik. Hikoyalari bizni bellashuv maydonlariga olib borar, yuzlari bahorning salqin shamolida afsonaviy qiyofa kasb etgan, raqiblar orasida jasorat va g'urur bilan ot surgan bobom jism yovqurligi, ruh salomatligida betimsol edi go'yo.

— Ko'pkari mardlar, polvonlar, dovyuraklar bellashuvi, — deydi pedagogika fanlari doktori, professor Tal'at Usmonxo'jayev. — U qadimga hosil bayrami, to'yilar, bahorgi sayillarda o'ynalgan. Tomoshaga kelganlar xavfsizligi, o'yinga xalaqit bermasligi uchun mo'ljallangan maydon



arava (hozir avtoulavlar) bilan o'raladi. Tomoshabin uzoqroqdan turib kuzatadi. Ko'pkari-uloq azaldan yigitlarni mohir ovchi, mergan, kuragi yerga tegmaydigan pahlavon, jismonan baquvvat, sog'lom qilib tarbiyalangan. Tiniq va toza havo, faol bir muhit, tabiat bilan yaqinlik, qizg'in bellashuv va his-hayajon odamlar kayfiyatini ko'targan. Chavandozdagi chaptastlik, qiyin pallalarda zarur qarorni qabul qilishi, sabr va matonati ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Bugun ham hududlarda xalq sayillarida ko'pkari-uloq qizg'in bellashuvlar asosida o'tkazib kelinayotadi. Mohir chavandozlar kashf etilyapti, el olqishi va hurmatiga sazovor bo'lmoqda. — Ko'pkari tez harakat talab qiladigan o'yin, — deydi Tal'at Usmonxo'jayev. — Bellashuv uchun mo'ljallangan maydon o'rtasiga bakovul uloq tashlaydi. Uloqni qo'lga kiritish uchun chavandozlar harakati boshlanadi. Raqiblar yuzlab otlar dupuridan jumbushga keladi. Uloqni maydondan olib chiqish g'oliblik sanaladi. G'alaba uchun kurash keskin, shiddatli kechadi. Yaxshi ot, bilak kuchi, mohirlik, chaptastlik g'alaba garovidir. Bu yerda yigitning ori, g'ururi sinaladi. Kurashlarda qat'iyat, iroda bilan birga jism va ruh salomatligi ham toblanib boradi.

### Belbog'li kurash

Qadimgi xalq sayillari, bayramlari va to'yularining ko'rkli bo'lgan belbog'li kurash Farg'ona vodiysi va unga tutash hududlar — Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida rivojlangan. Polvonlar yurt oqsoqollari va ulug'laridan duo olib qaydoga tushgan. Bu kurash turida o'zbekona lutf, mardlik va halimlik o'z ifodasini topgan. Bellashuvda g'olib chiqqan polvon yiqilgan

raqibini hurmat bilan turg'izib qo'yadi. Yengilgan polvon ham raqibiga tan berib, yelkasiga qoqib qo'yadi. Bu ham mardlik, adolatparvarlik, o'zidan kuchsiz odamga hurmat ko'rsatish kabi fazilatdir. — Belbog'li kurashning ko'p jihatlari o'zbek xalq milliy kurashiga o'xshab ketadi, lekin bunda polvonlar asosan belbog' orqali kurashadi, — deydi Tal'at Usmonxo'jayev. — Kurash qoidalari kelsak, bahslarda polvonlar bir-birining belbog'idan ushlab



bellashadi. Belbog'ni qo'yib yuborish mumkin emas. Barcha harakatlar belbog'ni ushlangan holda bajariladi. Asosiy maqsad raqibni muvozanatdan chiqarib, yerga yiqitish. G'irrom bo'lmagan aniq harakatlar g'alabani ta'minlaydi.

Kurashchi alqomat, epchil bo'libgina qolmay, raqibi harakatlarini tana orqali sezish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu kurashda yurak-qon tomirlari mustahkamlanadi. Mushaklarning kuchli bo'lishi qomatni tik saqlashga yordam beradi. Asabiyligni yengish, o'ziga ishonchning oshishiga zamin yaratadi. Intizom, hurmat va odob, sabr-toqat va matonat shakllanadi. Ruhiy barqarorlikka sabab bo'ladi.

— Bu sport turi, ayniqsa, bolalar salomatligini yaxshilaydi, agar u to'g'ri va nazorat ostida bajarilsa, — deydi bolalar shifokori Nigora Norbekova. — Kurash mashg'ulotlari organizmni chiniqitirib, mushaklarni ishini yaxshilaydi. Qon aylanishi, yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Kuch va chidamlik harakatlarni aniq va muvofiq bajarishga o'rgatadi. Lekin mashqlar malakali murabbiylar nazoratida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

### Ezgu qadriyat bolalar qalbiga qaytadimi?

Olis bolalik yillarining tuproq ko'chalari. Ariqlarni to'ldirib oqqan suv faqat muhit emas, balki tabiat bilan bog'lanish imkonini, hayotiy harakat va jismoniy quvvat manbai ham. Ariq ustidan kim ko'p sakrash bo'yicha bellashamiz. O'yinlarning turlari ko'p: "berkinmashoch", "qarmoqcha", "uzoqqa otish", "arqon tortish", "g'ozlar — oqqushlar"...

O'yin uchun mo'ljallangan joy — erkin ijod maydoni. Chunki bu maydonda real harakatlar bilan birga tasavvurlar ham ilgari suriladi. Majburiyatlardan xoli, tabiiylikka, erkinlikka intilish bor. Hayotni anglash, qayta yaratish va unga ma'no berish shu yerdan boshlanadi go'yo.

— Bolalarga alla aytilganda, ular qo'shiq oshangini anglay boshlaydi, — deydi Shomirza Turdumov. — Ehtimol, allaning ma'nosini tushunmas, lekin bolaning musiqaga munosabati shakllanadi. Topishmoq bolani obrazli fikrlashga yo'naltiradi. Erak esa bilimni qiladi. O'yinlar bolalarni jamiyatga aralashiradi. Ishitkorchilar sanama orqali adolat bilan ikki guruhga ajratiladi. Eng asosiysi, o'yinboshi va o'yinning ishtirok etuvchisi bo'ladi. Hamma ham o'yinboshi bo'lavermaydi. O'yinning ichida jamoani boshqaradigan, tartibini tashkil qiladigan, adolat bilan hukm chiqaradigan yetakchilar shakllanadi. Ixtiyoriy o'ynaladi va bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilmaydi. U jamiyatga faol qo'shiladi. Yurish, yugurish, sakrash va emaklash kabi harakatlar orqali bola jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetadi.

Bugun o'zgacha manzaraga guvoh bo'lyapmiz. Bolalar aksariyat vaqtini kompyuter va gadjetlar qarshisida o'tkazmoqda. Noto'g'ri holat skolioz, qon aylanishining yomonlashishi va bo'yin umurtqasiga yukning oshishiga olib kelishi mumkin. Agar bu hol uzoq vaqt davom etsa, bu o'zgarishlar yanada kuchayadi. Ko'zlar ekran nuridan aziyat chekadi. Mutaxassislar "quruq ko'z sindromi" yuzaga kelishini ta'kidlaymoqda. Bolalar ko'zlariga dam berish uchun muhtazam ravishda ekrandan uzoqroqqa qarashlari, yiroqdagi narsalarga e'tibor qarashini muhim. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan o'smirlarda yolg'izlik hissi ham kuchayadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lum qilishicha, dunyo bo'ylab bolalar o'rtasida ortiqcha vazn va semirish ko'rsatkichlari oshib bormoqda. 2025-yilda

ilk bor bolalar o'rtasida semirish holatlari og'irlik ko'rsatkichlaridan ancha yuqori bo'lgan. Xususan, maktab yoshidagi har o'ninchi bola va o'smir semirishdan aziyat chekaypti. Har beshinchisi, ya'ni jami 391 million o'g'il-qiz ortiqcha vaznaga ega. Shuningdek, dunyo aholisi orasida 800 milliondan ortiq kishi qandli diabetga chalingan.

Tadqiqotchilar buni nosog'lom ovqatlanish ratsioni, ya'ni arzon va yuqori kaloriyalik mahsulotlar iste'moli ommalashgani bilan bog'lashayotgan bo'lsa-da, yana bir omilni istisno qilib bo'lmaydi. Bu — kamharakatlilik. Mushaklar kuchining zaiflashishi va qon aylanishi buzilishi, nafas siqilishi, charchoq, mehnat va o'qish qobiliyati pasayishi, turli surunkali kasalliklar kamharakatlilik ortidan yuzaga kelishi sir emas.

Bu holda nima qilish mumkin? Milliy o'yinlarning jozibasini, ohorini bolalar qalbiga qaytarish yo'llari bormi?

— Bunday o'yinlarning ayrim turlarini zamonaviy sport yoki ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish kutilgan natijani berishi mumkin, — deydi Tal'at Usmonxo'jayev. — Bunda mutaxassislarning ijodkorligi katta ahamiyatga ega. Bolalarni butun qalbi bilan yaxshi ko'radigan, ular bilan shug'ullanishdan charchamaydigan ustoz, ijodkorlar kerak. Pedagogika sohasida loqaydlik yaramaydi. Bola egiluvchan. Qaysi tomonga yo'naltirsang, shu tomonga yuradi. Agar milliy o'yinlar zamonaviy sport turlari bilan uyg'unlashtirilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilsa, dars jarayonlarida ularning kengroq foydalanilishi, o'yinlarning ta'sirchanligi oshadi.

Bugungi kunda milliy o'yinlarning ba'zilari unutilmoqda. Ularni qayta tiklash va yosh avlodga yetkazish choralarini ko'rish kerak. Avvalo, qaysi milliy o'yinni tiklash kerakligi, uning manbalarini o'rganish zarur. Bu ilmiy metodik, qoidaviy, estetik jihatdan puxta amalga oshirilishi shart. Shundaygina o'yinlar folklor darajasidan institutsional, mazmunan yangilangan, go'zal qadriyat sifatida yosh avlodga taqdim etiladi.

Professormiz ta'kidlashicha, zamonaviy format, musobaqalar, targ'ibot o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Yoshlar orasida sportga qiziqish, jismoniy kamolotga intilish ortadi. Eski o'zbekona mahallalar ruhiga mos tarzda o'tkaziladigan milliy o'yinlar bo'yicha musobaqalar yuritmizga tashrif buyuradigan sayyohlarni befarq qoldirmaslik, bu, ayniqsa, xalqaro festivalarga aylansa, yurt shuhratini yanada yoyishi shubhasiz. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar qilinishi kerak. Bu innovatsion yangi sport turlari yaratilishiga turki beradi. Yangi izlanishlar o'z o'rinda xalqimiz merosini saqlash va davomiyligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Bugungi kamharakatlilik va uning oqibatida yuzaga kelayotgan kasalliklar asorati global muammoga aylanib borayotgan bir paytda xalq harakati o'yinlari mohiyatini qayta anglash, ularni ramon ruhiga mos ravishda rivojlantirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Milliy o'yinlarni zamonaviy sport turlari bilan integratsiya qilish, donishmand xalqning qalb qo'rini asrash, boyitish, keyingi avlodga bus-butun yetkazish bugungi kunning muhim vazifasi. Sog'lom va barkamol millat orzusi bilan hamohang bu vazifa vatanparvar, fidoyi, jismonan baquvvat, ruhan yetuk yigit-qizlarni voyaga yetkazishi, ularni el-yurt ravnag'i yo'lida safarbar etishiga ishonchimiz komil.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-446.

30646 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 20:06